

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ * AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Xalqaro forum

Giyohvandlikka qarshi kurash – bu faqat bir davlatning emas, balki butun insoniyatning umumiy mas'uliyati va majburiyatidir.

Shavkat MIRZIYOYEV

GLOBAL XATARGA QARSHI HAMKORLIK

Joriy yilning 20–21-aprel kunlari Samarqand shahrida «Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish» mavzusida xalqaro forum bo'lib o'tdi.



“JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MAQSADIDA
TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLARGA QARSHI KURASHISH”

2026-yil 20-aprel, Samarqand

“COUNTERING TRANSNATIONAL DRUG THREATS
TO PUBLIC HEALTH AND SECURITY”

April 20, 2026, Samarkand

Globalashuv jarayonlari jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirmoqda. Bu holat, o'z navbatida, innovatsiyalarni joriy etish, savdo hajmini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq globalashuvning tez sur'atlarda rivojlanishi ayrim salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Jumladan, so'nggi yillarda giyohvandlik moddalari-ning noqonuniy ishlab chiqarilishi va tarqatilishi transmilliy jinoyatchilikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib boryapti. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali narkobiznes tarmoqlari yanada yashirin va murakkab tus olmoqda. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida yangicha yondashuv va usullarni talab etadi.

12–13

Islohotlar – amalda

«XAVFSIZ MAKTAB» – XOTIRJAMLIK GAROVI



Bugungi kunda dunyoning ayrim mamlakatlaridagi ta'lim muassasalarida yuz berayotgan ko'ngilsiz hodisalar jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan «Xavfsiz maktab» tizimini joriy etish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Milliy kino saroyida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish aynan shu masalaga bag'ishlandi. Tadbirda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va hamkor tashkilotlarning mas'ullari, poytaxt maktablari direktorlari va o'qituvchilar ishtirok etdi. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, poytaxtimizdagi 326 ta davlat maktabining barchasi xavfsizlik tizimlari bilan jihozlanib,

bosqichma-bosqich professional qo'riqlash xizmatiga o'tkazilmoqda.

Joriy etilayotgan yangicha tizimning asosiy ustuvor yo'nalishlari – kirish-chiqish nazoratini qat'iy-lashtirish, intellektual videokuzatuv tarmog'ini kengaytirish hamda «Tashvish tugmalari» va tezkor xabar berish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat. Shuningdek, muhim yangiliklardan yana biri – maktab qorovullari uchun mutlaqo yangicha,

intensiv o'quv tizimining yo'lga qo'yilgani bo'ldi. Endilikda ular nafaqat binoni qo'riqlaydi, balki favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, birinchi yordam ko'rsatish va psixologik barqarorlik bo'yicha ham maxsus tayyorgarlikdan o'tmoqda.

Tadbirda so'zga chiqqan ta'lim muassasalari rahbarlari ham «Xavfsiz maktab» tizimini joriy etish g'oyat muhim vazifa ekanligi va bu borada hamkorlikni mustahkam davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

Shuningdek, tadbirda soha mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maxsus videoroliklar namoyish etildi. Ushbu videomateriallarda nafaqat maktablardagi xavfsizlik tizimlarining ishlash jarayoni, balki kelajagimiz egalari bo'lgan farzandlarimizni har

qanday tahdiddan asrash muqaddas burch ekanligi yuksak mahorat bilan ifodalangan.

– Ilgari maktab xavfsizligi deganda, faqat darvoza oldidagi navbatchilikni tushunardik, – deydi Yakkasaroy tumanidagi 73-sonli umumta'lim maktabi direktori Ozoda Qobilova. – Biz faqat texnika yoki qo'riqlash tizimiga ishonib qolmasdan, avvalo, o'zimizdan, har bir o'qituvchi va xodimning hushyorligidan boshlashimiz kerak. Agar har bir pedagog o'quvchining ruhiyatidagi o'zgarishni vaqtida sezsa, maktab ostonasidan kirgan begona shaxsga befarq bo'lmasa, tizim kutilgan natijani beradi.

Yig'ilish yakunida Prezidentimizning alohida e'tibori natijasida ichki ishlar organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun ajratilgan 50 ta yangi xizmat avtomobili IIV huzuridagi Qo'riqlash departamentining tezkor guruhlariga tantanali ravishda topshirildi. Bu avtomobillar maktablar atrofida patrullik qilish va chaqiruvlarga zudlik bilan yetib borish samaradorligini yanada oshiradi.

Hozirgi kunda Toshkent shahrida shakllantirilayotgan «Xavfsiz maktab» konsepsiyasi bosqichma-bosqich mamlakatimizning barcha hududlarida joriy etilishi rejalashtirilgan.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



ZAMONAVIY AVTOMOBILLAR TOPSHIRILDI

Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlari xodimlarining kriminogen vaziyatni jilovlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash maqsadida voqea joyiga tezkorlik bilan yetib borishi uchun 2 ta «Sinotruk», 2 ta «Krantas» va 8 ta «Cobalt» rusumli avtomobillar xizmatda foydalanish uchun topshirildi.



Avtomobillarni viloyat IIB boshlig'i, polkovnik Abduvoxid Ismoilov topshirib, xodimlarga xizmatda ijobiy natijalarni qo'lga kiritishiga ishonch bildirdi.

Aytish joizki, mazkur avtomobillar bugungi kun talabi doirasida to'liq avtokon radar, videoregistrator hamda yo'l harakati ishora belgilari ishlamay qolganda avtomobillar harakatini tartibga soluvchi qo'shimcha elektron uskunalar bilan jihozlangan.

O'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Istiqbolli hamkorlik

YANGI STRATEGIK QADAMLAR

Samarqand shahrida o'tkazilgan «Jamoat salomatligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish» mavzusidagi global forum doirasida Gruziya Ichki ishlar vaziri Gela Geladze boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurdi.



Gruziya Ichki ishlar vazirligi delegatsiyasi Yangi O'zbekiston majmuasiga tashrif buyurib, «Mustaqillik» monumenti poyiga gulchambar qo'yish marosimida ishtirok etdi. Shuningdek, mehmonlarga qator ko'rgazmali taqdimotlar namoyish qilindi.

Ichki ishlar vaziri, general-leytenant A.Tashpulatov delegatsiya a'zolari bilan muloqotda jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro

hamkorlikni mustahkamlash orqali samarali natijaga erishish mumkinligini ta'kidledi. Tomonlar ikki mamlakat Ichki ishlar vazirliklari o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib borayotganligini e'tirof etib, transmilliy jinoyatlarga, jumladan, narkojinoyatlar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tizimli hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish,

bu jarayonda vazirliklar o'rtasida axborot va o'zaro tajriba almashishni yanada kuchaytirish zarurligiga e'tibor qaratishdi.

Shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi samarali kurashish borasida ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirish va kadrlar tayyorlash jarayonida bilim va ko'nikmalar bilan o'rtoqlashish muhim ekanligi ta'kidlandi.

Tadbirda tomonlar terrorizm va ekstremizm, odam

savdosi, giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi hamda boshqa turdagi transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashishda hamkorlikni kuchaytirish va raqamli kriminalistika yo'nalishida ichki ishlar organlari xodimlari uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, Vazirlik tarkibidagi o'quv muassasalari bilan Gruziya huquqni muhofaza qilish organlari ta'lim dargohlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni

yo'lga qo'yish kabi dolzarb masalalarni muhokama qilishdi.

Do'stona va konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda o'zaro hamkorlikni rivojlantirish borasida istiqbolli vazifalar belgilab olindi. Tadbir so'ngida O'zbekiston va Gruziya Ichki ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-
muxbir, katta serjant.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

ERTANGI KUNGA ISHONCH

Bugungi kunda Xorazm viloyati ichki ishlar organlarida yosh xodimlar ko'pchilikni tashkil etadi. E'tiborli jihati shundaki, yosh xodimlarning 83 foizi oliy ma'lumotli. Bu ko'rsatkich tizimga nafaqat jismonan baquvvat, balki zamonaviy bilim va dunyoqarashga ega mutaxassislar kirib kelayotganidan dalolat beradi.



– Biz yoshlarga faqat buyruq yoki topshiriq bermaymiz, balki avvalo ishonch bildiramiz. Zero, ishonch bor joyda mas'uliyat va kutilgan natija bo'ladi, – deydi viloyat IIB ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati Yoshlar bi-

lan ishlash guruhi katta inspektori, leytenant Sa'dulla Abdullayev.

Hozirgi kunda ichki ishlar organlari tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy xodim nafaqat qonun ustuvorligini ta'minlashi, balki har tomonlama namunali bo'lishi lozim.



Boshqarma tizimida faoliyat yuritayotgan 23 nafar xalqaro miqyosdagi sport ustasining borligi jamoaning jismoniy tayyorgarligi qay darajada yuqori ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, yoshlar orasida chet tillarini, axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, malakali mutaxassislar safi kengayib bormoqda. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy uslublardan samarali foydalanish imkonini bermoqda.

Yosh kadrlarning xizmatga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda ularni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Joriy yilning o'tgan qisqa

davri mobaynida namunali xizmati va yuksak ko'rsatkichlari uchun 20 nafar yosh xodim rag'batlantirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaga yoki turli masalalarda ko'makka muhtoj bo'lgan 23 nafar xodimga manzilli moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Bu kabi chora-tadbirlar har bir xodimda «Vatanga xizmat qilish — sharaflı burch» degan tushunchaning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

Tadbir

MAHORAT DARGOHI



Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti tashkil etilganligiga 5 yil to'lishi munosabati bilan ta'lim muassasasi rahbariyati, professor-o'qituvchilar, soha faxriylari hamda tinglovchilar ishtirokida tadbir bo'lib o'tdi.

O'tgan qisqa davr mobaynida institut ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash va xodimlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish yo'lida o'ziga xos mahorat maktabiga aylandi.

Institut boshlig'i, polkovnik Olimjon Ahmedov tantanali marosimni ocharkan, ta'lim dargohining boy tarixi, besh yillik faoliyat sarhisobi, tashkil etilgan o'quv kurslarining statistik tahlili va muassasaning ilmiy salohiyatiga alohida to'xtaldi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik aloqalari, xodimlarning xorijiy xizmat safarlari, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi hamda amalga oshirilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xususida gapirdi.

Tadbirning eng hayajonli lahzalari institut ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilib, ta'lim sifatini oshirishga munosib hissa

qo'shayotgan jamoa vakillarini taqdirlash jarayoni bo'ldi. Ularga maxsus ta'xis etilgan esdalik nishoni tantanali ravishda topshirildi.

Tadbir davomida bo'lim, kafedra va sikl rahbarlari tomonidan ta'limga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mutaxassislar malakasini oshirish borasida erishilgan yutuqlar aks etgan taqdimotlar namoyish etildi.

IIV Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli xonandalarining chiqishlari tadbirga o'zgacha fayz baxsh etdi. Institut tinglovchilari tomonidan ijro etilgan sho'x raqslar esa yig'ilganlarga xush kayfiyat tuhfa etdi. Shuningdek, ko'p yillik tajribasi bilan yoshlarga o'rnak bo'lib kelayotgan soha faxriylari ham e'tibordan chetda qolmadi – ularga qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

IIV ta'lim muassasalarida

HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISH YO'LIDA

IIV Akademiyasi tomonidan vazirlik Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati hamda Toshkent viloyati IIBB mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbir o'tkazildi. IIVning 2-sonli Toshkent akademik litseyida tashkil etilgan ushbu tadbir «Yoshlar o'rtasida bezorilik va tan jarohati yetkazish jinoyatlarining oldini olish» mavzusiga bag'ishlandi.

Unda asosiy e'tibor yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda ularni salbiy illatlardan himoya qilishga qaratildi. O'quvchilarga jamiyatda uchrayotgan huquqbuzarlik holatlari, ularning oqibatlarini hamda qonunchilikda belgilangan javobgarlik haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, tadbir doirasida Toshkent viloyati IIBBning 1-Mintaqaviy hudud Tezkor vazifalarni bajarish otryadi, Maxsus operatsiyalar-



ni muvofiqlashtirish boshqarmasi Toshkent viloyati bo'yicha Maxsus otryadi hamda Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi bo'linmalari tomonidan ko'rgazmali chiqishlar tashkil etildi.

Xususan, portlovchi moddalarni zararsizlantirish jarayonlari, tez-

Sport

KUBOK VOHAGA BORADI

Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, inson qadrini ulug'lash va xodimlar o'rtasida ahillik rishtalarini bog'lashga qaratilgan ezgu tashabbuslar bugun yangicha mazmun kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ezgu tashabbuslar hayotga keng tatbiq etilib, bugun davlat idoralari va vazirliklar jamoalarida chinakam sport jo'shqinligi hukm surmoqda. Xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy va jamoaviy irodasini sinovdan o'tkazgan futbol bo'yicha an'anaviy «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasi haqiqiy sport bayramiga aylanib ketdi.

Aprel oyining ilk kunlaridan boshlangan shiddatli bahslarning yakuniy nuqtasi poytaxtimizdagi muhtasham «Jar» stadionida qo'yildi. Final bahsida yashil maydon uzra Toshkent shahar IIBB hamda Qashqadaryo viloyati IIB jamoalari yuzma-yuz kelishdi.

Poytaxt posbonlari raqib darvozasi oldida birin-ketin xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirib, shiddatli hujumlar uyushtirgan bo'lsa, voha o'g'lonlari toshdek mustahkam himoya va yashindek tezkor qarshi hujumlar bilan javob qaytarishdi. Ikki bo'lim davomida tribunalarni hayajonga solgan vaziyatlar ko'p bo'ldi, biroq har ikki tomon darvozabonlari mahorati tufayli asosiy vaqtda hisob ochilmadi. Maydonda «jangu jadal» o'z yechimini futbol lotereyasi deb ataluvchi penaltilar seriyasiga qoldirdi.

Asablar tarang tortilgan, nafaslar ichga yutilgan shu lahzalarda omad qashqadaryoliklarga kulib boqdi. Pen-

altilar seriyasida 4:2 hisobida ustun kelgan Qashqadaryo viloyati IIB jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, musobaqaning bosh sovrini – Vazir kubogiga ega bo'ldi.

Tantanali taqdirlash marosimi esa quvonch ko'z yoshlariga to'ldi. 3-o'rinni egallagan Andijon viloyati IIB jamoasiga bronza medal va 40 million so'm, 2-o'rin sohibi Toshkent shahar IIBB jamoasiga kumush medal, 50 million so'm hamda oltin medallar va bosh sovrin bilan taqdirlangan Qashqadaryo viloyati jamoasiga 60 million so'mlik mukofotlar Ichki ishlar vazirligi hamda O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi rahbariyati tomonidan topshirildi.

Bir so'z bilan aytganda, bu musobaqa tizim xodimlari o'rtasidagi hamjihatlik va sportga bo'lgan cheksiz mehrning yorqin ifodasi bo'ldi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.



xodimlarning xizmat jarayonlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu esa yoshlarda sohaga nisbatan qiziqishni yanada oshirdi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, mazkur tadbirning asosiy maqsadi – voyaga yetmaganlar va yoshlarni vatanparvarlik hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat. Shu bilan birga, o'sib kelayotgan avlodni terrorizm, ekstremizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish ham muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bunday profilaktik tadbirlar yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish hamda jamiyatda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazokat TOJIYEVA,
podpolkovnik.
Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Biz – korrupsiyaga qarshimiz!

VIJDON – ENG YAXSHI NAZORATCHI

Jamiyatda qonuniylik va adolat tamoyillarini ta'minlash, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda poraxo'rlikka qarshi murosasiz munosabat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, mansabdor shaxslarga pora taklif qilish yoki berish kabi harakatlar og'ir jinoyat hisoblanadi.

Tahlillarga qaraganda, ayrim holatlarda fuqarolar o'z qilmishining huquqiy oqibatlarini to'liq anglamasdan, javobgarlikdan qochish maqsadida noqonuniy yo'lni tanlamoqda. Jumladan, joriy yilning 21-yanvar kuni G'uzor tumanida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasi ortidan yuzaga kelgan holat korrupsiya bilan bog'liq jinoyatga aylandi.

Xususan, tumanda yashovchi fuqaro G'.X. «UAZ» rusumli avtomashinasini mast holatda boshqarib

borib, qarama-qarshi yo'nalishdan harakatlanib kelayotgan fuqaro Y.I. boshqaruvidagi «Nexia-1» rusumli avtomobil bilan yo'l-transport hodisasi sodir qilgan. Holat yuzasidan G'.X.ga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, avtomashina jarima maydoniga joylashtirilgan.

Oradan yigirma kun o'tib, G'.X. tuman IIB JXX YHXB boshlig'i, kapitan Nodirbek Murodovning yoniga kelib, yuqoridagi holat yuzasidan o'ziga chora ko'rmasligi va avtomashinasini jarima



maydonchasidan chiqarib berishi evaziga mo'maygina pora taklif etadi. Kapitan Nodirbek Murodov porani rad etib, G'.X. ni mazkur xatti-harakatlarining huquqiy oqibatlari haqida bir necha bor ogohlantiradi. Lekin

fuqaro o'z niyatidan qaytmaydi. Shundan so'ng xodim ushbu holat yuzasidan rahbariyatga bildirgi bilan murojaat qilgan.

Ushbu bildirgiga asosan, IIV SHXBB Qashqadaryo viloyati bo'yicha boshqar-

masi va IJQKD tuman bo'limi xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbirda G'.X. 5 mln. so'm miqdoridagi pullarni pora tariqasida berayotgan vaqtda ushlani, uning qilmishi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan. Mazkur holat yuzasidan IJQKDning tuman bo'limi tomonidan fuqaro G'.X.ga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, qonun ustuvor bo'lgan jamiyatda hech bir jinoyat jazosiz qolmaydi. Shunday ekan, har bir shaxs o'z xatti-harakatlari uchun qonun oldida ham, o'z vijdoni oldida ham javobgar ekanligini unutmasligi lozim.

O'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.

O'quv markazlarida

SOHA TAYANCHI

Ichki ishlar vazirligiga qarashli Farg'ona mintaqaviy o'quv markazi munosib kadrlar bilan ta'minlab kelmoqda. 200 o'ringa mo'ljallangan ta'lim dargohida o'quv-yig'in jarayonlari uzluksiz ravishda yo'lga qo'yilgan.



Markazda dars mashg'ulotlari malakali mutaxassislar va pedagoglar tomonidan ta'limning ilg'or tajribalari asosida olib borilyapti. Darsdan so'ng tinglovchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va kitobxonlikka keng jalb qilish maqsadida 2500 ga yaqin kitob fondiga ega kutubxona tashkil etilgan. Bu maskanda ilmiy, siyosiy, huquqiy va badiiy adabiyotlardan tashqari, gazeta va jurnallarning taxlamlari ham joy olgan.

Markazda 2 ta sport zal mavjud bo'lib, bu yerda sport va jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari jadval asosida tizimli ravishda tashkil etiladi. 200 kishiga mo'ljallangan oshxona va yotoqxona ham tinglovchilar ixtiyorida.

– Dars mashg'ulotlaridan tashqari, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tanlovlar va sport musobaqalarini ham tashkil etamiz, – deydi markazning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha katta mutaxassisi, katta

serjant Ramzbek Komilov. – Masalan, yaqinda Farg'ona shahridagi «Samo» sport majmuasida jahon va Osiyo chempionlari bilan uchrashuv o'tkazdik. Tadbir davomida xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan sportchilar o'z tajribalari, mashaqqatli mehnat va intizom orqali erishgan g'alabalari haqida tinglovchilarimizga so'zlab berishdi. Uchrashuv jarayonida tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olib, sportda muvaffaqiyatga erishish sirlari bilan tanishishdi.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kunga bag'ishlab o'tkazilgan «Zakovat» intellektual o'yini ham juda qiziqarli kechdi. Buyuk ajdodimizning davlat boshqaruvi, adolat va intizom tamoyillarini o'zida mujassam etgan «Temur tuzuklari» asari mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan bahsda tinglovchilar o'z bilim va tafakkurlarini sinovdan o'tkazishdi. Mazkur intellektual bellashuv ishtirokchilarning tarixiy bilimlarini yanada boyitish, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash hamda tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

O'tgan hafta markazda tashkil etilgan tantanali tadbir yosh xo-

dimlar qalbida unutilmas xotiralar bilan muhrlanib qoladigan bo'ldi. Shu kuni IIV huzuridagi Qo'riqlash departamenti safdorlar tarkibi uchun tashkil etilgan boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik o'quv yig'inlari yakuniga yetib, 87 nafar tinglovchiga maxsus sertifikat topshirildi.

Tadbirda markaz rahbari, polkovnik Jamoldin Mirzaliyev so'zga chiqib tinglovchilarning o'quv jarayoni davomida egallagan nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarini alohida e'tirof etdi. Shuningdek, ularning kelgusi xizmat faoliyatida yuksak marralar tilab, Vatanga sadoqat bilan, halol va fidokorona xizmat qilishlariga ishonch bildirdi.

Ma'lumot uchun, ayni paytda Qo'riqlash departamenti safdorlar tarkibi uchun tashkil etilgan navbatdagi boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik o'quv yig'inlarida 97 nafar posbon o'z kasbiy mahorati va bilim-saviyasini oshirayotgan bo'lsa, 30 nafar profilaktika inspektori ham malaka oshirish kurslariga jalb etilgan.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

Человек — общество — государство

В ФОРМАТЕ ПРЯМОГО ДИАЛОГА



Адресная работа с обращениями – ключевой инструмент укрепления доверия населения к органам правопорядка, механизм «обратной связи». Особую роль в этом процессе играют выездные приемы – система, позволяющая держать руку на пульсе общественных настроений.

В городе Алмалыке Департамент миграции и персонализации МВД Узбекистана совместно с ГУВД Ташкентской области провел очередную выездную прием. Рассмотрено более 100 обращений, причем свыше 70 вопросов решено положительно на месте.

Особое внимание уделили тем, кто длительное время находился в статусе лица без гражданства. В результате детальной проработки 69 обращений, 28 человек уже подали итоговые документы на гражданство. Для остальных проведена подробная юридиче-

ская консультация и сформирован алгоритм действий, позволяющий завершить процедуру оформления в ближайшее время.

Эмоциональным моментом приема стало вручение ID-карт пяти соотечественникам, принятым в гражданство. Среди них – Светлана Герасенко:

– Более двух десятилетий я жила в статусе лица без гражданства. Сегодня стала полноправной гражданкой республики. Для меня это огромное событие. Искренне признательна Президенту страны.

В ходе приема приняты заявления от 21 иностранного гражданина и лица без гражданства, изъявивших желание получить постоянную регистрацию и ID-карты.

Было организовано также выездное обслуживание для пожилых людей и лиц с инвалидностью. Сотрудники посетили 17 человек. Все процедуры – от оформления документов до выдачи готовых ID-карт – проведены в течение одного дня.

Итог приема подтверждает: органы внутренних дел сегодня – это не только опора правопорядка, но и надежный партнер соотечественников. Готовность сотрудников к открытому диалогу напрямую укрепляет доверие населения к системе.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Ташкентская область.

Психологическая служба

ТРЕНИНГ ЛИЧНОСТНОГО РОСТА

Сотрудники ППС, обеспечивающие общественный порядок, ежедневно взаимодействуют с самыми разными людьми. Кто-то просит о помощи, кто-то находится в состоянии нервного напряжения...

Для представителей Службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД Наманганской области и патрульно-постовой службы был организован тренинг на тему «Стрессоустойчивость и профессиональное общение». Цель – развитие навыков контроля эмоций в конфликтных ситуациях.

Сотрудники моделировали инциденты, возможные в реальной практике, отрабатывали приемы реагирования на провокационное поведение, осваивали техники невербальной диагностики – чтение мимики, жестов для своевременного выявления

скрытой агрессии и предотвращения правонарушений. Акцент был сделан также на укреплении командного духа и взаимной поддержке как ключевых факторов эффективности службы.

– Наши занятия развивают профессиональный потенциал, – говорит старший психолог группы психологического обеспечения УВД капитан Муроджон Бахриддинов. – На ближайшее время запланирован новый цикл мероприятий, посвященных специфическим темам служебной психологии.

Жахонгир ТУХТАСИНОВ,
соб. корр.

Наманганская область.



СОВЕТЫ ПСИХОЛОГА

Для управления конфликтом диалогом рекомендуются следующие приемы:

- эмоциональное заземление: делайте паузу перед ответом, чтобы не поддаваться на провокацию и сохранить самообладание;
- речевая деэскалация, тактическая гибкость: используйте ровный тембр голоса, технику активного слушания для перевода диалога в правовое русло;
- невербальный анализ: отслеживайте мимику и жесты оппонента для раннего выявления скрытой агрессии.

Связь поколений



Мой дедушка, капитан Худойназар Ташпулатов, прожил жизнь, которая сегодня служит нам ориентиром. Память о его честности и беззаветном служении – нравственный кодекс нашей семьи.

В суровые годы Второй мировой войны, будучи подростком, он наравне со взрослыми ковал Победу, проявляя невероятную силу духа. Его личный фронт проходил через цеха вагонного депо. Работая на пределе возможностей, он отдавал все силы у станка ради общего дела, сутками не покидая цех ради выполнения важного фронтного заказа.

После войны судьба Худойназара Ташпулатова была связана с органами внутренних дел. Он служил в ЛОВД на станции Карши, прошел путь до руководителя отдела охраны общественного порядка.

В моей памяти навсегда остались его воспоминания. Дедушка рассказывал, как ради раскрытия преступлений ему приходилось преследовать правонарушителей прямо по железнодорожному полотну. Однажды такой путь затя-

нулся почти до станции Мароканд в Самаркандской области.

Я с гордостью называю себя последовательницей дедушки. Моя служба началась в том же ЛОВД на станции Карши. Начинала в должности старшего делопроизводителя, затем была учетным работником. Мне выпала особая честь: наставниками стали ученики моего дедушки. Они тепло приняли меня в коллектив и щедро делились опытом. Сегодня продолжаю службу в УВД Кашкадарьинской области.

Грудь дедушки была полна наград: от почетных знаков до медали «Шухрат».

На фото из семейного архива – три поколения: легендарный дедушка, я и правнук Улмасжон Тожиев. Улмасжон мечтает пойти по стопам прадеда, а значит, династия будет и дальше стоять на страже правопорядка.

Ферузахон ТОЖИЕВА,
начальник канцелярии
организационно-аналитического отдела
СОБ УВД Кашкадарьинской
области,
рядовая.

Farmon va ijro

YOSHLAR KELAJAGIGA E'TIBOR

2025-yil 3-noyabrda qabul qilingan «Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Jizzax viloyatida keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hududda Milliy dastur doirasida olib borilayotgan ishlar, xususan, hududiy komissiyalar faoliyati, profilaktik targ'ibot tadbirlari va tezkor chora-tadbirlar natijasi raqamlarda aniq namoyon.



Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2024-yilga nisbatan narkotik moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq holatlar 27 foizga oshgan. Olib borilgan tezkor profilaktik tadbirlar davomida 2025-yil davomida 59 kilogramm 303 gramm narkotik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar musodara qilingan bo'lib, ularning asosiy qismini marixuana tashkil etadi. O'tgan yilda viloyatda giyohvandlikka oid 364 ta jinoyat fosh etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bugungi kunning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, Toshkent shahri tajribasini hududlarda joriy etish, uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatlar va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha «yo'l xaritasi» ishlab chiqilgan. Shu maqsadda viloyatda giyohvandlikka qarshi

“ O'TGAN DAVRDA VILOYATDA 95 TA HUQUQBUZARLIKNING OLDI OLINGAN BO'LIB, 7 KILOGRAMMDAN ORTIQ GIYOHVAND VA PSIXOTROP MODDALAR MUSODARA QILINDI.

murosasiz kurash olib borilmoqda.

Afsuski, yoshlar o'rtasida bu turdagi



jinoyatlar 16 foizga oshgan. Shu sabab yoshlar o'rtasida profilaktika ishlariga alohida e'tibor qaratilayotir. Oliy ta'lim muassasalari, mahallalar, jamoatchilik guruhları hamkorligida targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda. Jazoni ijro etish muassasalariga yoshlarning tashrifi uyushtirilib, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Tahlillar yoshlar qatlamining ushbu illat oldida zaif ekanini ko'rsatar ekan, ularning sog'lom muhit va sog'lom turmush tarzi bilan qamrab olinish zarurati paydo bo'ladi.

– Mahallamiz shahar hududida joylashgan bo'lsa-da, markazdan biroz olisda, – deydi Jizzax shahridagi Amir Temur nomli MFY yoshlar yetakchisi Nuriddin Alimov. – Ammo hududning o'zida sportning ko'plab turlari bilan shug'ullanish uchun sharoitlar yaratilgan.

Mahallamiz ahli bilan hamjihatlikda 2 marta mini futbol stadioni qurilishi loyihasi bilan «Tashabbusli budjet»da

g'olib bo'ldik. Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy tarzda jirkanch illatlarga qarshi targ'ibot materiallarini joylab boramiz. Sport infratuzilmasi bilan bir qatorda, ta'sirchan targ'ibot orqali yoshlar, ota-onalar va keng jamoatchilik ongiga kirib borishga harakat qilamiz. Natijada o'tgan yil va joriy yilning shu davriga qadar mahallamizda giyohvandlik va narkojinoyatlar bilan bog'liq holat sodir etilmadi.

Mutaxassislar fikricha, jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng muhim omil – profilaktika ishlarini manzilli tashkil etish, aholi, ayniqsa, yoshlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yishdan iborat. Viloyatda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurash umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Bu borada davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va aholining hamjihatligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Baxtiyor TOG'AYEV,
Jizzax viloyati IIB Axborot xizmati prodyuseri, kapitan.

Ot izini toy bosar

SHARAFLI KASB DAVOMCHISI

Har bir insonning hayot yo'lida bolalik orzulari alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, ota-onasi kasbiga havas bilan qarab ulg'aygan farzandlar bolalikdanoq mehnat, mas'uliyat va fidoyilikni o'z ko'zi bilan ko'rib katta bo'lishadi.



Samarqand viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi boshqar-

masi axborot guruhi kichik inspektori, safdor Akramjon Tolibov ham otasi – Samar-

qand shahar IIBda mas'ul lavozimda xizmat qilgan mayor Ravshan Hamidovga havas qilib katta bo'ldi. Otasining kasbiga mas'uliyat bilan yondashib, ba'zan xizmatdan charchab kech qaytsa-da, yana chaqiriq tufayli ishga chiqib ketganini, tunda ketib, tongda qaytganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Padari buzrukvorining Vatanimizga bunday sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilgani, uning qalbida otasiga va uning kasbiga nisbatan cheksiz hurmat paydo qildi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

– Otam bugungi kunda iste'foda bo'lsa-da, har kuni

o'git, maslahat va nasihatlar berib turadi. «Bolam, kasbingning mashaqqatli tomonlari ko'p, ularga sabr-toqat qilish kerak. Xizmatga loqaydlik bilan qaramasdan, hushyorlikni bir dam ham yo'qotmasdan xizmat qilsang, halol va pok ishlasang, hamkasblaring orasida obro' topan, el odida yuzing yorug' bo'ladi», – degan so'zlarini o'zimga shior qilib olganman, – deydi qahramonimiz. – Ba'zan odamlardan «Otangga rahmat, ukam», – degan gapni eshitganda vujudim titrab ketadi.

Darhaqiqat, uning duosini olganlar, uning izidan

borganlar hech qachon kam bo'lishmagan. Safdor Akramjon Tolibovning padari buzrukvori ishonchini oqlash, sharaflı oilasi nomiga munosib bo'lish uchun xalqqa sidqidildan xizmat qilayotganini ko'rib, halollik, poklik, fidoyilik singari tuyg'ular ham otadan bolaga o'tar ekan, degan fikrga keldik. Akramjon Tolibov hayoti va xizmati bunga yaqqol misol, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

26-aprel — Xalqaro intellektual mulk kuni

KASHFIYOTLARNI QADRLAYLIK

Har yili 26-aprelda butun dunyo bo'ylab Xalqaro intellektual mulk kuni keng nishonlanadi. Ushbu sana insoniyat tafakkuri mahsuli bo'lgan ixtirolar, badiiy asarlar, tovar belgilari hamda dizaynlarning jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o'rnini e'tirof etish maqsadida belgilangan. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda mamlakatlarning qudrati nafaqat tabiiy boyliklari, balki inson kapitali va uning mahsuli bo'lgan intellektual mulki bilan o'lchanmoqda.

Bu kun 2000-yilda Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) Bosh assambleyasi tomonidan ta'sis etilgan. Aynan shu sananing tanlanishi bejiz emas. Chunki 1970-yilning 26-aprelda JIMTni tashkil etish to'g'risidagi konvensiya kuchga kirgan. Har yili ushbu sana ma'lum bir global shior ostida nishonlanib, intellektual mulkning inson hayotidagi ahamiyati targ'ib qilinadi.

Intellektual mulkni kundalik hayotimizning ko'zgusi sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Zero, intellektual mulk shunchaki huquqiy termin emas. Bu bizning hayot sifatimizni belgilovchi omildir. Misol sifatida biz quyidagi omillarni ko'rishimiz mumkin.

- **Salomatlik: biz iste'mol qilayotgan dori-darmonlarning xavfsizligi va samaradorligi.**
- **Texnologiya: biz foydalanayotgan texnika vositalarining tejamkorligi va qo'limizdagi smartfonlarning imkoniyatlari.**
- **Madaniyat: biz tinglayotgan musiqa, tomosha qilayotgan film va mutolaa qilayotgan kitoblari-mizning qadri.**

Bugungi tezkor zamonda insonning aql-u zakovati bilan turmush tarzimizni yengillashtirishga qaratilgan ko'plab ixtirolar yaratildiki, ularsiz ijtimoiy hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Umuman olganda, intellektual mulkning bugungi kundagi o'rnini, ahamiyati, shu bilan birga, unga bo'lgan talab ham kuchaymoqda.

Shu bois intellektual mulkka bo'lgan ehtiyoj va uning qadri yildan-yilga oshib bormoqda. Yaratilayot-

gan intellektual mulk obyektlarini himoya qilish hozirda eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, telekommunikatsiya va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida mualliflik asarlaridan noqonuniy foydalanish holatlari tobora ortib bormoqda. Bu esa ijodkorlar va huquq egalari qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazib, ularning mehnati yetarlicha qadrlanmasligiga olib kelmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda soha mutaxassislar oldida bir qator muhim vazifalar turibdi. Eng avvalo, mualliflarning o'z mehnati natijasidan moddiy va ma'naviy naf olishini ta'minlash orqali huquqiy kafolatlarni mustahkamlash zarur. Ayniqsa, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda ixtirochilik va ijodkorlikni rag'batlantirish

mamlakatimiz Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishga qaratilgan qator qarorlari qabul qilindi. Bu hujjatlar sohada huquqiy asoslarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston mualliflik huquqi sohasida o'nga yaqin xalqaro shart-

larga moslashtirish ishlari izchil olib borilmoqda.

Adliya vazirligining kontrafakt mahsulotlar katalogi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yakuniga ko'ra vazirlik va hududiy adliya organlari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida bozorlardagi ko'plab noqonuniy holatlarga chek qo'yildi. Xususan, 18 nomdagi oziq-

So'nggi vaqtlarda raqamli makonda mualliflik huquqlarining buzilishi, ayniqsa, kino va musiqa asarlaridan ruxsatsiz foydalanish holatlari bo'yicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasi bilan bayonnomalar rasmiylashtirilib, sud qaroriga asosan aybdorlarga nisbatan jarima jazolari tayinlanyapti. Jumladan, shoirlarning ruxsa-

Intellektual mulk — bu inson aql-zakovati, ijodiy mehnati va mahorati natijasida yaratilgan mahsulotlarga bo'lgan huquqdir. Sodda qilib aytganda, bu «g'oyalar va ijod ustidan egalik huquqi» demakdir.

Bu tizim ijodkor va ixtirochilarni himoya qiladi. Agar siz biror yangilik yaratsangiz, hech kim sizdan ruxsat olmay turib undan foydalana olmaydi yoki u orqali pul topolmaydi. Bu esa odamlarni yangi g'oyalar ustida ishlashga rag'batlantiradi.

“ Quvonarlisi, mamlakatimizda intellektual mulk nafaqat himoya qilinmoqda, balki faol yaratilmoqda. 2025-yilning II choragi yakunlariga ko'ra, ixtirochilik sohasida yuqori natijalar qayd etildi. Foydali modellarni ro'yxatdan o'tkazishda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (4 ta), Toshkent davlat texnika universiteti (3 ta) va Andijon davlat universiteti (3 ta) yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, Andijon mashinasozlik, Buxoro muhandislik-texnologiya, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash hamda Mineral resurslar institutlari tomonidan ham salmoqli ilmiy ishlanmalar ro'yxatga olindi.


tisiz ularning she'rlari asosida qo'shiq ijro etgan bir qator xonandalarga nisbatan ham choralar ko'rildi.

Har qanday intellektual mehnat mahsuli qonun himoyasidir. Bu kabi huquqiy choralar jamiyatda mualliflik madaniyatini shakllantirish va ijodkorlarning qonuniy manfaatlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Ushbu xalqaro kunni nishonlash orqali ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini munosib himoya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish vositasida yangi texnologiyalar yaratilishi uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhitni shakllantirish maqsad qilingan. Shuningdek, jamiyatda intellektual mulkka nisbatan hurmat madaniyatini oshirish ko'zda tutilgan.

Intellektual mulk kuni faqat soha mutaxassislarining bayrami emas. Bu kelajakni o'zgartirishga qodir bo'lgan har bir ijodkor shaxs, izlanuvchi olim va tadbirkorning bayramidir. Keling, atrofimizdagi yangi g'oyalarni qadrlaylik va ularni himoya qilish orqali umumiy taraqqiyotimizga hissa qo'shaylik!

Hamidullo MO'MINOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi bo'lim
boshlig'i.



uchun qulay ijodiy muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda intellektual mulk sohasiga davlat darajasida alohida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Xususan,

noma va konvensiyalarga qo'shib, milliy mahsulotlarni xalqaro miqyosda himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, «**Intellektual mulk — jamiyatning bebaho boyligi**» tamoyili asosida sohani raqamlashtirish va xalqaro standart-

ovqat mahsulotlari, 8 nomdagi shaxsiy gigiyena va parfumeriya mahsulotlari, 5 nomdagi dori vositalari hamda 4 nomdagi trikotaj mahsulotlari bo'yicha kontrafakt mahsulotlar aniqlanib, ularning noqonuniy aylanmasiga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

Ma'naviyat va ma'rifat darsi

YANGICHA DUNYOQARASH VA MAS'ULIYAT - DAVR TALABI



YANGILANISH QONUNIYATI

Bugungi goballashuv jara-yonida Sharq falsafasini teran o'rganish, shu asosda ulug' madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, asrlar sinovidan o'tgan, buyuk ajdodlarimiz bizga meros qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy-umumbashariy ruh bilan boyitish barchamizning burchimizdir.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti ong va tafakkurimizning qanday o'zgarayotganligiga bevosita bog'liqdir. Zero, inson hayotga faqat kuzatish uchun emas, balki faoliyat yuritish uchun, o'zligini anglash uchun keladi.

- Yangi O'zbekistonda
- yangicha dunyoqarash
- - uning kelajagi haqida
- qayg'urish, «Vatanim
- menga nima berdi?» deb
- emas, «Men Vatanimga
- nima berdim?», «Vatanim
- taqdiri - mening taqdiri»
- degan ezgu g'oya
- bilan yashashda namoy-
- on bo'ladi. Bu esa unda
- haqiqiy fuqarolik pozit-
- siyasi mujassamligini,
- burch va mas'uliyatni
- anglash hissining borligi-
- ni bildiradi.

Darhaqiqat, insonning jamiyatdagi o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. U ajdodlarni avlodlarga, o'tmishni bugunga va kelajakka bog'lovchi ko'prik vazifasini bajaradi: otobobolarimiz to'plagan jamiki yaxshi fazilatlar, qadriyatlar, an'analarning majmui, tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Agar inson «Vatan» tushunchasining mohiyatini anglamas ekan, u hech qachon yetuklik darajasiga ko'tarila olmaydi. Insoniyat tarixida

komillikka erishgan buyuk insonlarning barchasi Vatanini anglagan, unga sodiq shaxslar bo'lgan. Bunday shaxslar haqida gap borganda, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi ajdodlarimizning nomlarini eslash o'rinlidir. Ular xalq va davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishgan, xalqqa bir umr xizmat qilishni oliy saodat deb bilishgan. Ular bir soniya bo'lsa-da, Vatanga daxldorlik tuyg'usini unutishmagan. Aksincha, ayni shu tuyg'u bilan mehnat va ijod qilib, avlodlarga buyuk ma'naviy meros qoldirishgan.

MAS'ULIYAT VA MAS'ULIYATSIZLIK

Mas'uliyat - bu har bir kishining kasbiy, shaxsiy va ishchanlik fazilatlarini, uning faoliyat uslubi, mehnatining rag'batlantiruvchi va samaradorlik omilidir. Mas'uliyat insonning davlat va jamiyatdagi o'rni va rolini tavsiflaydi, uning davlat va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydi. Mustaqillikni mustahkamlash, islohotlarni izchil davom ettirish, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash lozim bo'lgan hozirgi sharoitda turli jabhalardagi jarayonlarda mas'uliyatni oshirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda mas'uliyat, avvalo, samarali davlat va mahalliy boshqaruv hamda kadrlar bilan ishlash siyosatini olib borishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

«Shoshib nima ham qildim», «keyin qilaman», «ulguraman» degan bahonalar esa mas'uliyatsizlikning ko'rinishlari bo'lib, bu hayot tarzimizning noto'g'ri shakllanayotganidan dalolatdir.

Telefon, planshet va kompyuter yoshlarning doimiy hamrohiga aylandi. Aynan shu gadjetlar yoshlar nigohini «mixlab» mas'uliyatsizlik hissini uyg'otmoqda. Murg'ak qalblarda virtual dunyodagi kabi, birgina tugmani bosish bilan masala, hal degan fikr paydo bo'ladi. Vaqt, mehnat, intizom va izchillik kabi qadriyatlar esa ortga suriladi.

MUHIM OMIL

Yangi O'zbekistonda islohotlar, avvalo, inson uchun, uning manfaatlarini uchundur. Islohot va mas'uliyat - har bir jamiyatda o'zgarishlar va rivojlanishga olib keluvchi muhim omil sifatida bir-birini to'ldiradi, jamiyatdagi hayot darajasi va aholi farovonligini oshirish, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yangilashda muhim rol o'ynaydi. Jamiyat hayotida amalga oshiriladigan islohotlar turli jabhalarda ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi. Islohotlarni samarali amalga oshirishda mas'uliyatli shaxslar va tashkilotlarning o'rni bo'lak. Demak, islohotlar ijtimoiy to'qimadagi har bir shaxsning hissasi, o'zgarishlarga bo'lgan mas'uliyatiga bog'liqdir.

Nafsilamrini aytganda, islohotlar va mas'uliyatning o'zaro bog'liqligi jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir. Agar islohotlar to'g'ri va adolatli amalga oshirilsa, mas'uliyatli va shaffof boshqaruv ostida jamiyatdagi barqarorlik va rivojlanish ta'minlanadi. Bularni birlashtirish orqali o'zgarishlar haqiqiy va ustuvor bo'ladi. Jamiyatning har bir a'zosi o'zgarishlarga mas'uliyat bilan yondashganida, amalga oshirilayotgan

islohotlar samarasi yuqori bo'ladi va davlatning rivojlantirishiga katta hissa qo'shiladi.

DAXLDORLIK HISSI

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan ziddiyatlar, noxush voqealar barchamizni birdek tashvishga soladi. Dilni xira qiladigan bunday voqealar bizdan uzoqda, deb unga loqayd qarash kaltabinlikdir. Shuning uchun jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalardan hamisha ogoh bo'lish, ona Vatanimizdagi tinch-oso-yishta va farovon hayotning qadriga yetish barobarida, shu osuda hayotni yanada mustahkamlash uchun har bir inson o'z hissasini qo'shmog'i, el-urt taqdiri, kelajagi uchun daxldorlik tuyg'usini diliga jo qilmog'i darkor.

Vijdoni pok, ma'naviy kamolotga erishgan odam haqiqat va adolatning toptalishiga befarq qarab turolmaydi. El-yurt manfaatiga zarar yetkazadigan xatti-harakatlarni, o'z yurti va xalqiga nisbatan xiyonat hamda sotqinlikni hech qachon qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdonan qiynaladi, qalban eziladi. Qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga kirishadi va bunga erishadi.

Mamlakat va millat taqdiri bilan bog'liq jarayonlarda

fuqarolarning toza e'tiqod, hushyorlik hamda mas'uliyat bilan harakat qilishi, yaxshini yomondan, aslni soxtadan farqlay olishi ma'naviyat darajasining mezoni sifatida maydonga chiqadi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limiga jiddiy e'tibor qaratmoq lozim. Ana shundagina hech qanday yot g'oyalar va mafkuralar ular ongiga ta'sir eta olmaydi, oldimizga qo'yilgan yuksak marralar zabt etilaveradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida huquq-tartibot idoralari, xususan, ichki ishlar organlari xodimi, avvalo, egallagan lavozimiga har tomonlama munosib, eng muhimi, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, dunyoqarashi keng bo'lishi lozim.

Osoyishtalik posbonlari dunyoqarashi va ma'naviyati yuksakligi bobida barchaga namuna, ibrat bo'lishini zamon talab qilmoqda. Davr har birimizdan o'zimizni tinimsiz taftish qilish, o'z ustimizda muntazam ishlash, faoliyatimizni to'xtovsiz takomillashtirishni kun tartibiga qo'ymoqda. Negaki, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat faoliyati xalq orasida, ular nazarida kechadi. Shu bois xodimlardan yuksak madaniyat bilan bir qatorda, odamlarni qonunlarga va jamiyatdagi mavjud qoidalarga hurmat bilan ergashtira olishi talab etiladi. Bu xodimning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi, xalq orasida obro'-e'tiborini oshiradi.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.

Qoraqalpoq
tilida



Rus tilida



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

► **Global forum**

Cooperation against international threats

On April 20–21, 2026, the prestigious global forum «Combating transnational drug threats to ensure public health and security» was held in Samarkand. The event brought together representatives from the UN, EU, SCO, and WHO, along with law enforcement leaders from nearly 50 countries and approximately 500 international experts. At the opening of the forum, a message from President Shavkat Mirziyoyev was delivered to the participants, highlighting that over 300 million people worldwide suffer from drug addiction. The President emphasized that in Uzbekistan, the fight against this menace has been elevated to the level of a nationwide movement.

Uzbekistan's systemic reforms in this field are yielding tangible results: in the first quarter of 2026 alone, the efficiency of detecting clandestine drug laboratories increased threefold. A historic highlight of the forum was the inaugural «International youth summit on combating narcotic threats», where young activists presented innovative AI-driven programs such as «Qalqon AI», «Sentinel», and «NarkoGuard», designed to identify and block online drug stores. Underscoring the country's growing international prestige, Uzbekistan was elected to the UN Commission on crime prevention and criminal justice for the 2027–2029 term.



Insights from international experts:



Milos STOJANOVIC (Regional health advisor, UNODC): «The President's address fully encompassed the forum's objectives. Our primary goal is to harmonize law enforcement activities with public health and safety priorities. This platform proved excellent for discussing evidence-based solutions».



Alexander FEDULOV (Deputy regional representative, UNODC): «The forum was organized at the highest level and culminated in the significant Samarkand declaration. The involvement of youth in countering cyber-related drug threats is a stellar example of a proactive regional approach».



Salome FLORES (Head of the UNODC research and analysis center): «Given the rising threat of synthetic drugs, this forum served as a vital dialogue space for different nations to share expertise and reach a collective consensus on countermeasures».

The forum concluded with the signing of the Samarkand declaration and several memoranda of understanding with international organizations, solidifying a unified global approach to neutralizing narcotic threats.

► **Reforms in action**

«Safe school» – a guarantee of peace of mind

A meeting dedicated to ensuring security in educational institutions was held at the National cinema palace of Uzbekistan with the participation of the Minister of internal affairs, lieutenant general Aziz Tashpulatov. During the event, it was emphasized that all 326 state schools in the capital are gradually being transferred to professional security services and equipped with modern intelligent video surveillance and «panic buttons».

As part of the new system, intensive training courses for school security personnel have been launched. As noted,



security is closely linked not only to technology but also to the vigilance of educators. At the end of the meeting, 50 new service vehicles were officially handed over to the rapid response groups of the

Security department under the Ministry of internal affairs for patrolling around schools. This «Safe school» concept is planned to be implemented step-by-step across all regions of the country.

► **Traditions continue**

When experience and enthusiasm combine...

The «mentor-apprentice» traditions within the internal affairs bodies are yielding significant results in crime prevention. Senior prevention inspector of the Navoiy city department of internal affairs, colonel Tukhtasin Kholmurodov, successfully transformed the «Bahor» neighborhood from a high-risk «red» zone to a safe «green» zone through systematic efforts.



The experienced officer skillfully passes on his knowledge to his apprentice, senior lieutenant Shahzod Bafoyev, a prevention inspector for the «Vatan» mahalla. Relying on his mentor's advice, the young officer recently resolved a conflicting family situation peacefully through objective analysis. Such a combination of experience and youthful enthusiasm serves as a key factor in ensuring public peace and the professional development of young personnel.

► **Service and courage**

Vigilance and speed are their motto



In the Chilonzor district of the capital, patrol and post service officers conducted a swift operation to apprehend a dangerous criminal who had been at large for three years. Based on a signal received from the Single emergency management center, junior sergeant Umar Mirzayev and private Khudoybergan Bobojonov arrived at the designated location.

The suspect refused to comply with legal demands and attempted to flee the scene in a «Cobalt» vehicle, endangering the lives of the officers. Despite this, thanks to the resolve and quick actions of private Khudoybergan Bobojonov, the vehicle was stopped and the criminal was detained. This incident once again demonstrated the high efficiency of digital technologies and modern management centers in the fight against crime within the law enforcement system.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Sohamiz malikalari

ORZULAR QANOTIDAGI AYOL

Jamiyat tinchligi, ko'chalardagi osoyishtalik, ommaviy tadbirlardagi tartib, bularning barchasi ko'p hollarda ko'zga ko'rinmas, ammo mas'uliyati ulkan xizmat sohiblarining zahmati bilan ta'minlanadi. Ana shunday fidoyi xodimlar safida Andijon viloyati IIB JXX Post-patrul xizmati inspektori, safdor Qumrixon Yuldasheva ham bor. U erkaklar bilan yelkama-yelka turib, jamoat tartibini saqlashdek mas'uliyatli vazifani ado etib kelmoqda.

Qumrixon Asaka shahridagi ziyoli oilada dunyoga kelgan. Uning qarindoshlari orasida ichki ishlar organlarida xizmat qilgan erkaklar ko'p bo'lgan. Ana shu muhit, shu muhabbat uning qalbida ham sohaga nisbatan qiziqish uyg'otdi. Ayollar orasida bu kasb egalari deyarli uchramasdi. Ammo u o'z orzusidan qaytmadi. Kelajagini faqat shu sohada ko'rdi. Shu bois 2005-yilda ichki ishlar organlarida xizmat qilish istagini bildirib murojaat qildi va o'sha yiliyiq Asaka tumani IIBga ish yurituvchi lavozimiga qabul qilindi.

Vaqt o'tishi bilan uning mas'uliyatligi, intizomi va ishga bo'lgan sadoqati e'tibordan chetda qolmadi. Keyinchalik u hozirgi xizmat joyiga taklif etildi. Bu yerda unga yanada yuksak vazifalar ishonib topshirildi. Jamoat joylarida tartibni saqlash, ommaviy tadbirlarda



xavfsizlikni ta'minlash, aholi osoyishtaligini nazorat qilish – bularning barchasi uning kundalik xizmatining ajralmas qismiga aylangan.

Albatta, bu xizmat oson emas. Tun-u kun, issiq-sovuq demay, doim hushyorlik talab etiladi. Biroq Qumrixon ustozlari – podpolkovniklar Surayyoxon Mamatqulova, Nargizaxon

Bakirova va mayor Azizaxon Karimovalardan olgan saboqlari tufayli har qanday qiyinchilikni mardonavor yengib o'tmoqda. Ulardan o'rgangan intizom, mas'uliyat va matonat uning faoliyatida muhim o'rin tutadi.

— Har safar bayramlarda jamoat tartibini saqlashda ishtirok etayotganimda, yurtimizda mana shunday baxtli damlar ko'pligidan quvonaman, — deydi safdor Qumrixon Yuldasheva. — Zero, tinch yurtga bayramlar yarashadi. Dunyoning ayrim hududlarida vaziyat keskinlashayotgan bir paytda, biz shu osoyishtalikdan bahramand bo'lib yashayotganimiz buyuk ne'matdir.

Xizmat jarayonida turli holatlarga duch kelishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, jamoat joylarida xotin-qizlar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqanda, Qumrixon o'zining bosiqiligi, ayollikka xos muloyimligi bilan ularni tinchlantiradi, murosaga keltiradi. Bu esa uning nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi xodim, balki inson qalbini tushuna oladigan nozik ruh egasi ekanini ham namoyon etadi.

Qumrixon Yuldasheva joriy yil 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida Ichki ishlar vazirligining II darajali «Ichki ishlar organlarida benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu e'tirof uning fidokorona mehnatiga berilgan munosib bahodir. Shubhasiz, bu mukofot uning xizmat yo'lidagi muhim bosqichlardan biri, xolos. Chunki u bundan-da yuksak yutuqlarga munosib. Erkaklar bilan bir safda turib, Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan Qumrixon kabi ayollar sohamizning haqiqiy malikalidir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Bir surat tarixi

KASBIDAN QADR TOPGANLAR

Jizzax viloyati IIB sohaviy xizmatlarida o'z kasbini ardoqlab, benuqson xizmat qilib kelayotgan fidoyi xodimlar ko'plab topiladi. IIB EKM bosh espertlari, podpolkovniklar – Keldiyor Alibekov va Alyona Jumayevalar uzoq yillardan buyon ushbu sohada. K. Alibekov 2002-yil may oyidan EKBning kriminalistik ekspertizalar guruhida ekspert, A. Jumayeva esa ikki yil keyin xuddi shu lavozimda xizmatga kirishgan.

– Inson sevimli kasbini ardoqlab, o'ziga birlashtirilgan xizmat vazifalari ustida tinimsiz izlanishlar olib borsam, qadr topar ekan, — deydi podpolkovnik Keldiyor Ali-

bekov. Men aslida Toshkent davlat aviatsiya institutining oliy texnik yo'nalishida ilm olganman. Zamonaviy texnikalarni yaxshi tushunaman. Hozirda EKMda xatshunoslik

va noqonuniy hujjatlarning texnik ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazaman. Xizmatdoshim va do'stim Alyona Jumayeva esa iz qidiruvda, qo'l-barmoq izlari bo'yicha ishlaydi. Bizni viloyat IIBda barcha eski qadrdonlar deyishadi. Haqiqatdan shunday. Alyona rostdan ham eng qadrdon do'stlarimdan biri. Biz doimo sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh qilish ustida birgalikda tezkor xizmat olib boramiz. Ko'p yillik tajribamiz bizga asqatmoqda.

Ushbu fidoyilar hozirgi kunda kasbidan tom ma'noda qadr topganlar qatorida. Har ikkalasi ham «A'lo xiz-



matlari uchun» hamda II va III darajali «Ichki ishlar organlarida benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni sohiblari. Podpolkovnik A. Jumayeva esa davlatimizning yuksak mukofoti «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan.

Siz ko'rib turgan ushbu suratlarining birinchisi

2005-yilda tarixga muhurlangan. U hozirda viloyat IIB «Shon-sharaf muzeyi»da osig'liq turibdi. Ikkinchi surat esa yaqinda, ikki hamkasbning xizmat paytidan olingan.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.



GLOBAL XATARGA

(Boshlanishi 1-betda.)

Shuningdek, sintetik giyohvandlik moddalarining tez tarqalishi natijasida turli aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlar orasida iste'mol qilish ko'paymoqda. Bu holat jamiyat sog'lomligiga, oila institutiga va kelajak avlod tarbiyasiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu borada profilaktika ishlarini kuchaytirish, aholi o'rtasida targ'ibotni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi farmoniga muvofiq, giyohvandlikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish va aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining 2025-yil dekabr oyida Oliy Majlisga yo'llagan murojaat-nomasida giyohvandlikka qarshi kurashni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish zarurligi alohida ta'kidlanib, ushbu illatga qarshi kurash nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi, balki butun jamiyat – oila, ta'lim muassasalari, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi mas'uliyati ekani qayd etilgan.

So'nggi yillarda narkotiklarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlar aniqlash ko'rsatkichi 2,5 barobar oshdi, musodara qilingan giyohvandlik vositalari 2 barobar, yo'q qilingan sintetik narkotiklar 7 barobar ko'paydi.

Birgina o'tgan yilning o'zida huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etildi,



Birgina o'tgan yilning o'zida huquq-tartibot idoralari tomonidan 15 mingdan ziyod narkojinoyat fosh etildi



qariyb 3,5 tonna giyohvandlik vositalari, jumladan, 120 kilogramm sintetik narkotiklar yo'q qilindi, 14 ta yashirin narkolaboratoriya va 72 ta yirik internet do'koni faoliyatiga chek qo'yildi.

xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Mazkur xalqaro forum avvalida davlatimiz rahbarining ishtirokchilarga yo'llagan murojaatini Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva o'qib eshittirdi. Murojaatda

keltirilishicha, BMTning ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 300 milliondan ortiq odam giyohvand moddalar ta'siriga tushib qolgan. Har yili 600 mingga yaqin inson ushbu illat qurboniga aylanmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida bunday xavf-xatar O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Shu bois O'zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish masalasi umummilliy harakatga aylantirilib, barcha kuch

va vositalar safarbar qilinmoqda. So'nggi yillarda sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash, profilaktika mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan 20 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. Ayniqsa, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi. Ayniqsa, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi. Ayniqsa, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi. Ayniqsa, 2024-yilda narkotiklarga qarshi kurashish bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi.

Shuningdek, forum doirasida ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun qator xalqaro tashkilotlar rahbarlari maxsus ta'xis etilgan «Narkotiklarga qarshi kurashish fidoyisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Ayni paytda, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi yana bir muhim voqea bilan mustahkamlandi. Nyu-York shahrida EKOSOS sessiyasi doirasida bo'lib o'tgan

saylov yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi 2027–2029-yillar uchun BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyiy odil sudlov bo'yicha komissiyasi a'zoligiga saylandi. Mazkur komissiya EKOSOS tizimidagi asosiy hukumatlararo tuzilmalardan biri bo'lib, jinoyatchilikning oldini olish, jinoyiy adolatni rivojlantirish va qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida global siyosatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Milos Stoyanovich – BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi sog'liqni saqlash bo'yicha mintaqaviy maslahatchisi:

– Ushbu xalqaro forum doirasida erishmoqchi bo'lgan asosiy yondashuvlardan biri giyohvandlikka qarshi kurashlar, ya'ni asosan huquqni muhofaza

Bugungi tahlil zamonda dunyo hamjamiyati yanada qat'iyat bilan birgalikda harakat qilishi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Kun sayin uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va tarqatishning yangi shakllari paydo bo'layotgani insoniyat uchun transmilliy tahdidlar ko'lamini kengaytirmoqda.

(Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro forum qatnashchilariga yo'llagan murojaatidan)

Bugungi kunda O'zbekiston giyohvandlikning barvaqt oldini olish, samarali davolash, narkojinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida 50 dan ortiq davlat va

QARSHI HAMKORLIK

qiluvchi organlar faoliyati bilan bog'liq yo'nalishlarni jamoat salomatligi va xavfsizlik masalalari bilan uyg'unlashtirishdir. Menimcha, mazkur forum Prezident tomonidan ta'kidlangan sog'liqni saqlashga oid ustuvor yo'nalishlarni muhokama qilish uchun juda qulay platforma bo'ldi. Biz 5 ta alohida panel sessiyalari orqali bu masalalarni yanada batafsil muhokama qilish imkoniga ega bo'ldik. Xususan, profilaktika, davolash va reabilitatsiya, xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, alohida ta'kidlangan jihat, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik masalasi bo'lib, bu o'ziga xos asosiy ustun

– Forum juda yuqori saviyada tashkil qilingan. Mavzu dolzarb va muhim. U «Samarqand deklaratsiyasi» hujjati bilan yakunlandi. Yoshlar mavzusiga bag'ishlangan tadbirlar esa narkokontrol masalalarini hal etishda mintaqaviy yondashuvning yorqin namunasidir. Bu masala faqat Markaziy Osiyo uchun emas, balki butun dunyo davlatlari uchun ham dolzarb hisoblanadi. Hozirgi zamonda giyohvandlik moddalarining internet orqali sotilishi bilan bog'liq muammo ham bor. Bu juda jiddiy tahdid. Afsuski, kibermakondan jinoyat guruhlari tomonidan giyohvandlik moddalarini aholiga, ayniqsa, yoshlarga sotish uchun foydalanilmoqda.

latlarda o'z tajribalari bilan o'rtoqlashish, mavjud muammolarni muhokama qilish va birgalikda umumiy kelishuvga erishish uchun muloqot maydoni bo'ldi. Forum davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Narkotiklar va o'qotar qurollarni nazorat qilish agentligi, Xalqaro va Ibero-Amerika Boshqaruv hamda Davlat Siyosati Jamg'armasi (FIAP) o'rtasida o'zaro anglashinuv memorandumini imzolandi.

Mazkur anjuman-da ilgari suriladigan taklif va tashabbuslar insoniyatga, millatlar genofondiga tahdid solayotgan narkotiklar muammosiga qarshi birlashish yo'lida yangi qadam bo'ladi.
Bu borada O'zbekistonning pozitsiyasi qat'iy: biz ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda hech qachon ikkilanmaymiz, chekinmaymiz, ortga qaytmaymiz!
Biz barcha sheriklarimizni ushbu global tahdidga qarshi amaliy harakatga chaqiramiz!
(Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro forum qatnashchilariga yo'llagan murojaatidan)

general-leytenant Aziz Tashpulatov hamda Afg'oniston Ichki ishlar vaziri o'rinbosari Shayx Abdul Rahmon Munir boshchiligidagi delegatsiyaning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

yangi va samarali usullarini amaliyotga joriy qilish masalalarini muhokama qilishdi.

Sammitda O'zbekiston faol yoshlari tashabbusi bilan joriy qilingan «Anti-narko» yoshlar front-ofislari volontyorlari harakati hamda «AI Hackathon» umumilliy loyihasining internet tarmog'idagi narko'konlarni va giyohvandlik vositalarini tarqatish holatlarini sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida aniqlash va bloklashga mo'ljallangan «Qalqon AI», «Sentinel» va «NarkoGuard» kabi dasturlar namoyish etildi.

Shu bilan birga, yoshlar sammitida «Biz giyohvandlikka qarshimiz!» respublika videoroliklar tanlovi g'oliblari ham taqdirlandi. Sammit yakunida Markaziy Osiyo yoshlari tomonidan mintaqa davlatlarining sohaga oid faoliyatni olib borayotgan rasmiylariga yo'llangan «Yoshlar murojaati» qabul qilindi. Yakunda «Transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurash: jamoat salomatligi va xavfsizligi» bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi imzolandi.

Mazkur forum xalqaro va mintaqaviy darajada samarali hamkorlikni yanada kengaytirish, narkotahdidlarga qarshi kurashishda yagona yondashuvlarni shakllantirish hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Ikrom HASANOV va Sodik HAKIMOV
olgan suratlar.

Samarqand viloyati.



hisoblanadi. U ishtirokchi davlatlar va a'zo mamlakatlarga o'z faoliyatini yanada samarali tashkil etish va javob choralarini tizimli ravishda yo'lga qo'yishda yordam beradi.

Forumda BMT, YI, SHHT, MDH, JSST, JBT hamda 20 dan ortiq boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi. Shuningdek, 50 ga yaqin davlatdan huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari va 500 ga yaqin xalqaro ekspertlar hamda soha mutaxassislari qatnashdi.

Aleksandr Fedulov – BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Afg'oniston, Markaziy Osiyo, Eron va Pokiston bo'yicha mintaqaviy vakili o'rinbosari:

Salome Flores – BMTning Narkotik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi Giyohvandlik va jinoyatchilik bilan bog'liq transmilliy tahdidlarni tadqiq qilish va tahlil qilish bo'yicha axborot markazi rahbari:

– Anjumanda giyohvandlik moddalari bozori qanday o'zgarayotgani muhokama qilinib, bu jarayonni tahlil qilish imkoniga ega bo'ldik. Hozirda sintetik giyohvandlik moddalari tahdidi ortib borayotganini ko'ryapmiz va buni idoralar yanada chuqurroq tushunib, shunga mos ravishda chora ko'rish juda muhim. Bu borada mazkur forumning tashkil etilgani muhim tashabbus hisoblanadi. U mintaqadagi va mintaqadan tashqari dav-

Shuningdek, narkojinoyat uyushgan guruhlariga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, texnik vositalar, mahalliy ishlab chiqarilgan maxsus jihozlarni namoyish etish maqsadida tashkil etilgan xalqaro ko'rgazma forum ishtirokchilari, xususan, xorijiy soha mutaxassislari o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

Global forum doirasida o'tkazilgan muhim tadbirlardan biri O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) o'rtasidagi hamkorlik masalalari muhokamasi bo'ldi. Shuningdek, Ichki ishlar vaziri

Bundan tashqari, forum doirasida BMTning yoshlar tarmog'i vakillari bilan tarixda ilk bor «Narkotahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro yoshlar sammiti» o'tkazildi. Unda Markaziy Osiyo davlatlaridan ming nafarga yaqin faol yoshlar oflayn va onlayn tarzda qatnashdi. Uning asosiy maqsadi mintaqa davlatlari yoshlari o'rtasida giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish, narkojinoyatlarga qarshi murosasiz kurashishni davom ettirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iborat.

Tadbirda yoshlar o'z loyihalari haqida fikr almashib, o'sib kelayotgan avlodni bu illatdan himoya qilishning

Тўйхат ўрнида

ЮРАК АМРИ БИЛАН ЯШАШ САОДАТИ

Фидойилик ва садоқатни шиор қилганлар доимо эл ардоғида яшайди. Ана шундай ибратли умр йўлига эга инсонлардан бири Наманган вилояти ИИБ бошлиғи маслаҳатчиси

сифатида тизимда ҳалол ва фидокорона хизмат қилаётган истеъфодаги полковник Рустам Аббосов муборак 75 ёшни қарши олмоқда.

Болалик йилларидаёқ отаси — ички ишлар органларида хизмат қилган Абдуллажон Аббосовнинг фаолиятини ҳавас билан кузатиш, ҳар тонг унинг милиция формасини ғурур билан кийиб, хизматга йўл олганини кўриш ёш Рустамнинг қалбида ўчмас из қолдирган. Бу манзара унда нафақат ҳавас, балки масъулият, Ватанга садоқат ва халққа хизмат қилиш каби олий фазилатларни шакллантирди.

Шу орзулар унинг келажак йўлини белгилаб берди. У ички ишлар тизимида узоқ йиллар сидқидилдан хизмат қилди. Турли лавозимларда фаолият юритаркан, ҳар доим адолат, ҳалоллик ва интизомни устувор деб билди.

ВИЖДОН ВА БУРЧ
ЙЎЛИДА

Ўшанда 1969 йил эди. Ички ишлар вазирлиги биноси ёнида саф тортган йигитлар орасида Рустам ҳам турарди. Янги форма эгнига ярашган, юрагидаги орзу амалга ошганидан кўзларида бир вақтнинг ўзида ҳам ҳаяжон, ҳам ғурур чақнарди. Шу куни у Миробод тумани (ўша даврдаги Октябрь тумани) ИИБда ўз хизматини бошлади.

Илк кунларданок Рустам бошқалардан ажралиб турди. Ҳар бир ишга ички қатъият билан ёндашиш, одамлар дардини эшита олиш, самимий ёрдам бериш унинг энг катта кучига айланди.

Икки йиллик ҳарбий хизмат уни янада тоблади. 1973 йилда ўз юртига қайтгач, Наманган шаҳар ИИБ Тергов бўлинмасида иш бошлади. Бу ерда Рустам ака фақат қонун моддаларига эмас, инсон руҳиятига ҳам таянадиган терговчи сифатида танилди. У жиноятларни қуруқ далиллар орқали эмас, одамлар қалбидаги сирларни англаш орқали очарди. Шу боис унинг иш юритиш услуби кўплаб мураккаб ишларнинг адолатли ҳал бўлишига хизмат қилди — айбдорлар жазо олди, бегуноҳлар эса оқланди.

Бир муддатдан сўнг у жиноят қидирув бўлимига ўтди. Бу ерда ҳаёт янада шиддатли, янада хавфли эди. Ҳар бир чақирув — номаълум хавф, ҳар бир топшириқ — оғир масъулият. Унинг тезкор фикрлаши, одамлар билан ишлаш усули ва вазиятни баҳолай олиши кўплаб жиноятларнинг очилишида ҳал қилувчи аҳамият касб этди. Шу билан бирга, у ўз устида ишлашдан тўхтамади — Тошкент давлат университетининг ҳуқуқшунослик факультетини тамомлаб, назария билан амалиётни уйғунлаштирди.

ЕЛКАДАГИ МАСЪУЛИЯТ

1976 йил. Рустам Аббосов ҳаётида янги масъулиятли босқич бошланди — Тўрақўрғон тумани ИИБ бошлиғининг ўринбосари этиб тайинланди. Энди у бутун бир жамоанинг ишига жавобгар эди. Унинг раҳбарлик тамойиллари оддий, аммо чуқур маънога эга эди: ҳалоллик ва инсонга ҳурмат. Ходимларидан фақат натижа эмас, виждон билан ишлашни, ҳисоботда камчилик қилмасликни ва энг муҳими — халқ билан очиқ мулоқот қилишни талаб қиларди. Чунки у ишонарди: ишонч бор жойда адолат қарор топади.

1980 йиллар эса бутун мамлакат ҳаётида бурилиш даври бўлди. Сиёсий ва ижтимоий ўзгаришлар ҳар бир инсонни, айниқса, тизимда ишлаётган ходимларни жиддий синовдан ўтказди. Бу йиллар Рустам ака учун ҳам энг оғир даврлардан бири бўлиб қолди. У Наманган тумани ИИБга



Суратда: истеъфодаги полковник Рустам Аббосов вилоят ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси Долимжон Олимов ҳамда Янги Наманган ИИБ бошлиғи ўринбосари, подполковник Соҳибжон Жўраев билан.



раҳбарлик қилиб, жиноятчиликка қарши курашиш ва фуқаролар осойишталигини таъминлашда янги иш услубларини жорий этди.

У кабинетда ўтириб иш юритадиган раҳбарлардан эмас эди. Одамлар орасига чиқар, улар билан юзма-юз суҳбатлашар, ҳар бир мурожаатни диққат билан тингларди. Зарур бўлса, ҳар бир кўчага кириб, воқеани шахсан ўрганарди. Ана шу ёндашув орқали нафақат жиноятлар камайди, балки одамларнинг ички ишлар органларига бўлган ишончи ҳам аста-секин тиклана бошлади. Унинг номи адолат ва қатъият тимсоли сифатида тилга олинадиган бўлди.

1984 йил охирида унинг хизматдаги фидойилиги ва юқори натижалари муносиб баҳоланди. Рустам Аббосов Москва шаҳридаги ИИБ Академиясига ўқишга юборилди. Бу унинг ҳаётида янги саҳифа очди. Академияда у ҳақиқий раҳбар бўлиш сирларини

ўрганди: оператив фикрлаш, мураккаб вазиятларда тўғри қарор қабул қилиш, инсон психологиясини англаш каби муҳим кўникмаларни чуқур ўзлаштирди.

БЕСАМАР ОҚМАГАН
СУВЛАР

2019 йилдан буён Рустам Абдуллажонович Наманган вилояти ИИБ бошлиғининг маслаҳатчиси сифатида фаолият юритиб келмоқда. Аслида, бу лавозим унинг кўп йиллик хизмат йўлининг манتيкий давомидир. Чунки бундай масъулиятли вазифада фақат тажриба эмас, балки ҳаётни теран англаш, одамлар тақдирига бепарқ бўлмаслик каби фазилатлар ҳам талаб этилади.

Унинг ташаббуси билан ташкил этилган «Фахрийлар маркази» эса тизимда инсон қадрини улуғлаш борасидаги амалий қадамлардан бири бўлди. Зеро, ҳар қандай тизимнинг кучи — унинг тарихи, тажрибаси ва ана шу тажрибани яратган инсонларга бўлган муносабат билан ўлчанади. Бугун юзлаб фахрийларга кўрсатилаётган эътибор ва ғамхўрлик — авлодлар ўртасидаги узвийликни сақлашга хизмат қилаётган муҳим омилдир. Рустам ака бу жараёнда фақат ташаббускор сифатида эмас, балки маънавий масъулиятни ҳис этган инсон сифатида иштирок этмоқда.

Рустам Аббосовнинг бутун фаолиятига назар ташласак, бир муҳим жиҳат кўзга ташланади: у ҳар қандай вазифани, аввало, бурч сифатида қабул қилган. Бу эса унинг фаолиятига барқарорлик ва мазмун бағишлади. 2025 йилда «Содиқ хизматлари учун» медали билан тақдирлангани ана шу бурчга садоқатнинг давлат миқёсида эътироф этилишидир.

Ҳар бир давр ўз қаҳрамонларини яратади. Аммо вақт синовидан ўтадиган, элнинг юрагида қоладиган инсонлар кам бўлади. Рустам Аббосов ана шундай шахслар сирасига киради. Унинг ҳаёт йўли — бутун тизим ва келгуси авлодлар учун сабоқ. Шу сабабли ҳам унинг тажрибаси, қарашлари ва ҳаётини тамойиллари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Аксинча, Янги Ўзбекистон шароитида бундай ибратли йўллар янада қадрли бўлиб бормоқда.

Ўнлаб шогирдларнинг чинакам устози бўлган истеъфодаги полковник Рустам Аббосовдаги ғайрат-шижоат, янги ғоя ва ташаббуслар яна кўп авлодлар йўлини ёритувчи маёқ бўлиб хизмат қилиши шубҳасиз.

Жаҳонгир ТЎХТАСИНОВ,
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.

«Issiq izida»

HUSHYORLIK VA TEZKORLIK ASOSIDA qidiruvda bo'lgan shaxs ushlandi

Patrul-post xizmati xodimi uchun har bir kun alohida mas'uliyat va sinovdir. Chunki, istalgan daqiqada kutilmagan voqea yuz berishi mumkin. Poytaxtimizning Chilonzor tumanida sodir bo'lgan holat soha xodimlaridan qay darajada hushyorlik, jasorat va tezkorlik talab etilishini yana bir bor namoyon qildi.

Yagona tezkor boshqaruv markaziga kelib tushgan xabarga ko'ra, bosqinchilik jinoyatini sodir etib, uch yildan buyon qidiruvda bo'lgan shaxs shahar ko'chalaridan birida yurganligi aniqlangan. Uni qo'lga olish haqidagi topshiriq zudlik bilan Chilonzor tumani IIOFMB 4-sonli IIB 29-yo'nalishida xizmat olib borayotgan Toshkent shahar IIBB PPXB OTDXTB 3-batalyoni 4-otryadi inspektori, kichik serjant Umar Mirzayev hamda Chilonzor tumani IIOFMB PPX 1-otryad inspektori, safdor Xudoybergan Bobojonovning planshetiga yuborildi.

Belgilangan manzilga yetib kelgan xodimlar

shubhali shaxsni tekshirish maqsadida to'xtatishadi. Biroq fuqaro o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmasdan, qochishga urinadi. U tezlik bilan tanishiga tegishli bo'lgan «Cobalt» rusumli avtomashinaga o'tirib, eshiklarni ichki tomondan qulflab oladi. Xodimlarning to'xtash ishoralariga qaramasdan, haydovchi harakatni davom ettirib, ularning qonuniy talablarini bajarmaydi. Hatto avtomashinani ular tomon haydab, qochishga urinadi.

Shunda safdor Xudoybergan Bobojonov tezkorlik bilan harakat qilib, avtomashinaning chap oynasini sindirib, transport vositasining eshigini ocha-

di. Shu tariqa, qidiruvda bo'lgan shaxs qo'lga olinib, belgilangan tartibda tuman ichki ishlar bo'limiga topshiriladi.

Yosh xodimning qat'iyati ushbu vaziyatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. U holatni to'g'ri baholab, sarosimaga tushmasdan, tezkor va aniq harakat qildi. Shubhasiz, ana shunday fidoyi va jasur xodimlar yurt tinchligi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda asosiy omildir. Bunday xodimlar «osoyishtalik posboni» degan yuksak nomga har jihatdan munosib.

Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Yagona tezkor boshqaruv markazining zamonaviy im-



koniyaatlari tufayli ko'plab jinoyatlar «issiq izida» fosh etilmoqda. Bu esa huquq-tartibot tizimida raqamli texnologiyalarning

samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

An'analardavom

TAJRIBA VA SHIJOAT UYG'UNLASHSA...

Har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish, avvalo, bilim va tajribaning uzviy bog'liqligiga tayanadi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan xodimlar uchun bu jihat yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tizimda ustoz-shogird an'analari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Navoiy shahar IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik To'xtasin Xolmurodov boy tajribaga ega, o'z burchiga sadoqatli, fidoyi xodimlardan. U ayni paytda shahardagi qariyb 5 ming nafar aholi istiqomat qilayotgan «Bahor» mahallasi osoyishtaligini ta'minlashga mas'ul.

Mahalla ilgari huquqbuzarliklar ko'rsatkichi yuqori bo'lgani uchun «qizil» toifada edi. Olib borilgan tizimli va maqsadli profilaktik ishlar natijasida hudud dastlab «sariq», bugungi kunda esa «yashil» toifaga kiritilgan. Bu natijalarga podpolkovnik To'xtasin Xolmurodov mahalla yettiligining boshqa a'zolari bilan qo'lni qo'lga berib ishlagani tufayli erishdi.

Birgalikda har bir oilaga kirib borishdi, muammolarni o'rganib, joyida yechim topish choralari ko'rishdi. Ayniqsa, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrash, bandligini ta'minlash va to'g'ri yo'lga yo'naltirish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan manzilli ishlab, profilaktik suhbatlar o'tkazdi.



Lavhamiz qahramoni yillar davomida orttirgan bilim va malakasini xizmat jarayonida qo'llash barobarida, yosh kadrlarga o'rgatib ham kelmoqda. Uning shogirdlaridan biri «Vatan» mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Shahzod Bafoyevdir. U yosh bo'lishiga qaramay, ustoz-

ning saboqlari, maslahatlari va hayotiy tajribalariga amal qilib, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida sezilarli natijalarga erishmoqda.

Katta leytenant har bir murojaatga e'tibor bilan qarab, muammolarga yechim topishga intiladi. Yaqinda ajrim yoqasida turgan

oiladagi janjalli holatni o'rganish uchun bordi. Oilaning bir a'zosi o'zini mutlaqo haq deb ko'rsatishga urinar, vaziyatni faqat o'z nuqtayi nazaridan baholardi.

Aynan shu paytda ustozining maslahatlari Shahzodga qo'l keldi. Podpolkovnik To'xtasin Xolmurodov hech qachon holatni bir tomonlama o'rganmaslik, har tarafdin tahlil qilib, shundan keyingina xulosa chiqarish lozimligini uqtirgandi. Yosh xodim ikkinchi tomonning ham fikrini eshitdi, qo'shnilar va oilaning yaqinlari bilan suhbatlashdi. Xullas, vaziyatni har tomonlama chuqur o'rgandi. Natijada janjalning asl sabablari aniqlab, nizoni tinch yo'l bilan hal etishga erishdi.

Ha, ichki ishlar organlari tizimida ustoz-shogird an'analari nafaqat yosh xodimning kamol topishiga, balki jamiyatda huquq-tartibotni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Zero, chuqur bilim, boy tajriba va yoshlik shijoati, kuch-g'ayratining uyg'unlashuvi o'z samarasini beradi. Podpolkovnik To'xtasin Xolmurodov va katta leytenant Shahzod Bafoyev faoliyati bunga yorqin misol bo'la oladi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Turfa taqdirlar

SUKUNATNI
SINDIRGAN YIG'I

yoki qirq to'rt yil panjara ortida kechgan umr

IIV huzuridagi Birinchi mintaqaviy hudud 23-sonli Mahkumlar uchun iqtisodlashgan kasalxonada bo'lganimizda, bizga muassasaning Tarbiyaviy ishlar bo'limi xodimi, mayor Nozim Shamsiddinov hamrohlik qildi. Kasalxonani aylanar ekanman, davolanayotgan har bir mahkum ko'zida kechikkan afsus-nadomat, pushaymonlik bor edi go'yo. Muassasa hovlisidagi daraxtlarni parvarish qilayotgan bir kishi e'tiborimni tortdi. Uning harakatlari sokin, ammo nigohida adoqsiz armon jo edi.



– Bu kishi kim? – deb so'radim hamrohimdan.
– Bu insonning taqdiri juda achinarli. O'zi bilan bir gaplashib ko'ring, – dedi Nozim aka.

Shu tariqa, mahkum Abdurazzoq Saparovni suhbatlashish uchun koloniya kutubxonasiga boshladik. U Qo'qonda tug'ilgan, umrining naq qirq to'rt yili temir panjaralar ortida o'tgan ekan. Oila qurmagan, farzand ko'rmagan. Bu kabi tushunchalar uning uchun faqat orzu bo'lib qolgan, endi armonga aylangan. Abdurazzoq ota biroz sukut saqlab, og'ir xo'rsinib gap boshladi:

– Bilasizmi, muxbir qizim, bolaligimni eslasam, yurak-bag'rim eziladi. Oilada sakkiz farzand edik. Otam ko'p aroq ichardi. Onam qiyinchilikda bizni katta qildi. Men eng katta farzand edim, lekin eng egri yo'lga kirgan ham men bo'ldim. Otam mast bo'lganida onamni urardi.

Oxiri onam bu qiyinchiliklarga chiday olmay ketib qoldi. Men otam bilan qoldim.

Shu paytdan hayotim izdan chiqib boshladi. 7–8 yoshimda mayda o'g'irlik bilan shug'ullandim. Afsus bilan aytamanki, bu «hunar»ni otamdan o'rgandim. Keyin otam qamalib ketdi. Oylab uyga kelmasdim. Meni «ko'cha» tarbiya qildi. Menday bebosh bolaning kimga ham keragi bor edi. O'n sakkiz yoshimda birinchi marta qamaldim. Keyin esa bu yo'ldan qaytolmadim.

Hammasiga o'zim aybdorman. Buni tan olaman.

Uning ovozi juda ohista, ammo har bir so'zi ta'sirli edi.

– Qirq to'rt yil kam vaqt emas. Bu vaqt ichida odam oilali, uyli-joyli, bola-chaqali bo'ladi. Men esa hech qaysiga ulgurmadim. Oila qurmadim, farzand ko'rmadim. «Ota» degan so'zni eshitmadim. Hozir yolg'iz singlimdan bo'lak hech kimim yo'q. Boshqa jigarlarim bilan qondoshlik rishtalarim butunlay uzilib ketgan. U ham ko'rgani kelolmaydi, faqat xat yozib turadi. Koloniyada bog'bonlik qilaman. Nihollar bilan gaplashaman. Nihollar o'sib-unib, bir kun ulkan daraxt bo'ladi, meva tugadi, hech bo'lmasa soya beradi. Men esa...

U og'ir tin olgach, yana gapida davom etdi:

– Bir necha yil avval ko'zim umuman ko'rmay qolgandi. Uch yil juda qiynaldim. Pi-yolamni ham, qoshig'imni ham topolmasdim. Doim hamxonalarimning yordamiga muhtoj edim. Keyin shu kasalxonada davolandim. Jarrohlik amaliyoti o'tkazishdi. Qayta-qayta jinoyat qilgan bo'lsam-da, menga ko'z nurimni qaytarishdi. Shuning uchun muassasa shifokorlaridan juda minnatdorman.

Suhbat oxirida unga ehtiyotsizlik bilan bitta savol berdim:

– Agar mo'jiza yuz berib, vaqt ortga qaytsa, nima qilar edingiz?

Bu savol uni sindirdi go'yo. U darhol javob berolmadi. Keyin yelkari titrab-titrab yig'lab yubordi. Bu oddiy yig'i emas, balki qirq to'rt yillik sukutning parchalanishi edi...

– Oila qurardim... bolalarim bo'lardi... Ularni bag'rimga bosib, mehr berardim. Halol mehnat qilib, peshona terim bilan rizq topardim. Faqat... Faqat otamga o'xshamasdim. Bolalarim tugul, dushmanimga ham o'zim boshimdan kechirgan hayotni ravo ko'rmayman.

”

Qizim, mabodo man haqimda yozadigan bo'lsangiz, ismimni o'zgartirib o'tirmang. Zora, boshqalarga saboq bo'lsa...

Muassasadan qaytarkanman, yo'l bo'yi og'riqli o'ylarim tinchlik bermadi. Inson taqdiri qanday nozik rishtaga bog'liq ekanini yana bir bor angladim. Ba'zan bir marta qo'yilgan nojo'ya qadam uning kelgusi hayotini barbod qilar ekan. Abdurazzoq Saparovning qismati buning tasdig'i. Bu hikoya aslida uning taqdiri emas, balki inson tanlovi haqida. Hayotda to'g'ri yo'lni o'z vaqtida tanlash naqadar muhim ekani haqida. Chunki ba'zan bir marta qilingan xato butun umrlik afsus-nadomatga sabab bo'lishi mumkin...

Xadicha O'TAYEVA
kapitan.

Odam savdosi –
olam muammosi

«Nafs odamning eng katta dushmanidir», deydi donishmandlar. Oramizda ana shu dushmaning gapiga kirib, oson pul topish ilinjida har qanday qabih ishga qo'l uradiganlar ham uchrab turibdi. O'z hamyurtlarini aldab, chet davlatlarga olib ketayotganlar ham aslida nafs qurbonlaridir.

AEROPORTDA
TO'XTATIB
QOLINDI

Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Tezkor qidiruv xizmati odam savdosiga qarshi kurashish bo'linmasi, DXX Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi hamda Farg'ona tumani IIB xodimlari tomonidan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda ana shunday qing'ir ish fosh etildi.

Ma'lum bo'lishicha, Xorazm viloyatining Shovot tumanida tug'ilgan, hozirda Turkiya Respublikasining Izmir shahrida yashab kelayotgan ayol Farg'ona tumanida istiqomat qiluvchi, 1989-yilda tug'ilgan ayol bilan o'zaro tanishib, uni chet elda mo'may daromad topishga qiziqtiradi. Shu yo'l bilan aldab, undan shahvoniy maqsadlarda foydalanishni ko'zlab, Izmir shahriga borishga ko'ndiradi va elektron aviachipta yuboradi.

Yaxshiyamki, «Toshkent-Istanbul-Izmir» yo'nalishidagi ushbu safar huquq-tartibot organlari xodimlarining hamkorlikdagi sa'y-harakati tufayli «Toshkent» xalqaro aeroportida to'xtatib qolindi. Aks holda, jabrdiyda ayol odam savdosi jinoyatining qurboniga aylanishi, chet davlatda og'ir ahvolga tushib qolishi mumkin edi.

O'tkazilgan tezkor tadbir yuzasidan protsessual hujjatlar rasmiylashtirilib, jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Mulohaza

HUQUQIY IMMUNITET ZARUR

Uyim Boyovut tumani markazidan unchalik uzoq emas. Ba'zan kechki payt ishdan qaytayotib anhor bo'yidagi charog'on yo'lakdan yayov qaytishni yoqtiraman. Yo'l-yo'lakay tanishlarim, mahalladoshlarimga duch kelaman. Ularning bolajonlari velosipedlarda uchib yurganini ko'raman, do'st-yoronlarni o'zaro gurunglashib turgan holda uchrataman. Odamlarning bunday baxtga to'liq, tinch-osuda hayotidan juda mamnun bo'laman. Lekin ular xotirjam, bexavotir gurunglashib turgan bir paytda sal narida PPX xodimi ana shu osoyishtalikni ta'minlash uchun hushyorlik bilan xizmat o'tayotganini xayoliga ham keltirishmaydi. Chorrahada YPX inspektori harakatni tartibga solayotganini o'ylab ko'rishmaydi. Mabodo, xodimlarga ko'zi tushsa nima qipti? Bu ularning burchi-ku, – deb beparvo o'tib ketishadi.

Yaqinda Xalq deputatlari Boyovut tumani kengashida jinoyatchilikka qarshi kurashish holati tahlil qilindi. Unda tuman IIB mas'ullari huquq-

buzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlarni atroflicha tahlil qilib berishdi. Jumladan, giyohvandlik, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik, o'g'rilik, firibgarlik kabi jinoyatlarga qarshi o'nlab targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan. Shunga qaramasdan, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etish holatlari to'xtamagan. Nega? Tahlil



natijalari ko'pchilik qatori, meni ham o'ylantirib qo'ydi. Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqatgina

targ'ibot tadbirlarining o'zi yetarli emas ekan-da?

Mahallalarda aholini targ'ibot tadbiriga jalb qilishning o'zi bir mashaqqat. Boisi, ko'pchilik bunday tadbirlarda qatnashishdan ko'ra tirikchilik bilan shug'ullanishni afzal bilishadi. Biror huquqbuzarlikka guvoh bo'lgan

shaxsdan nega bu haqda ichki ishlar organiga xabar bermading, deb so'ralsa, buni chaqimchilik deb hisoblashini aytadi. Shundan keyin yana jinoyatchilik nega kamaymaypti deb hayron bo'lishadi.

Salkam o'ttiz yillik el orasidagi xizmatimdan kelib chiqqan holda, huquqbuzarliklarni keskin kamaytirish mumkin deb hisoblayman. Buning uchun ijtimoiy profilaktika bilan birgalikda odamlarning ong-u tafakkurida huquqiy immunitetni shakllantirish, jinoyatchilikka murossasizlikni milliy mentalitetning ajralmas qismiga aylantirish, ma'na-

Negadir jamiyatda jinoyatchilikning oldini olish faqatgina huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining vazifasi, degan qarash shakllanib qolgan.



viy qadriyatlarimizni yanada kuchaytirish taqozo etiladi.

Huquqiy immunitet, eng avvalo, o'zgarar huquqlarini hurmat qilish madaniyatidir. Bu bemorning joniga ora kirish uchun ketayotgan «Tez tibbiy yordam» mashinasiga yo'l berish, xotiniga zo'ravonlik qilayotgan erkakni bu yo'ldan qaytarish, yosh o'g'loni bezorilik qilganidan uyalib, boshini ko'tara olmaslik, o'z go'dagini sotayotgan betamiz ayolga sharoit yaratib bermaslik degani. Shundagina biz huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

Husnora BERDIYOROVA,
Xalq deputatlari Boyovut tumani kengashi kotibiyat mudiri.

Xavfsiz va sog'lom yurt

KENG KO'LAMDA O'TKAZILMOQDA

G'ijduvon tumani IIB xodimlari tomonidan xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, favqulodda hodisalarning oldini olish maqsadida keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunday tadbirlar jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda juda asqatyapti.

Maxsus profilaktik tadbir davomida tuman IIB xodimlari mahallalar yettiligi va faollari, jamoatchilik vakillari bilan birgalikda fuqarolarning yashash sharoitlari va pasport-viza qoidalariga amal qilinishi tekshirib chiqilyapti. Tekshirishlar va aholi o'rtasida uyushtirilgan uchrashuvlar natijasida jinoyat sodir etib, tergovdan qochib yurgan 7 nafar shaxs ushlendi. 40 nafarga yaqin shaxslarga huquqbuzarlik sodir etganligi bois ma'muriy qamoq jazosi berildi. Shuningdek,

hududlardagi ochilmasdan qolgan jinoyatlarni fosh etish choralari ko'rilmoqda. Jinoyat sodir etgan va profilaktik hisobda turgan shaxslarning barchasi bilan profilaktik ishlar olib borilmoqda. Qolaversa, tuman hududidan uzoq muddatga ketgan hamda yashash manzillariga qaytib kelgan shaxslar va ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Tadbirlar davomida umumta'lim va kasb-hunar maktablarida muloqotlar o'tkazilayotgani yoshlar ora-

sida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning oldini olishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ichki ishlar organlari xodimlari Yoshlar agentligi hamda mahalla yettiligi bilan hamkorlik qilayotgani o'z samarasini beryapti.

Bundan tashqari, jamoat tartibini saqlash hamda yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida sohaviy xizmatlar xodimlaridan tashkil etilgan tungi guruhlar faoliyati yanada kuchaytirilib, ko'plab ko'ngilsiz hodisalarning oldi olinyapti. Avtomashinani mast holda boshqarish, noqonuniy tadbirkorlik bilan shug'ullanish kabi ko'plab qonunbuzarliklar aniqlanib, tegishli choralari ko'rilmoqda. Shu bilan birga, tuman bo'ylab 508 ta kuzatuv kamerasi o'rnatildi. Jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o't-

kazilayotgan reydlarda 46 ta holatda sovuq qurol olib yurish holatlari aniqlandi va bartaraf etildi. Giyohvandlik va psixotrop vositalari bilan bog'liq 6 ta jinoyatga chek qo'yildi.

Tuman IIB Tezkor-qidiruv xizmati xodimlari tomonidan olingan tezkor ma'lumotga asosan o'tkazilgan tadbir davomida «Xalqobod» MFY Ko'hna Oqrabot qishlog'ida yashovchi E. Sami (ismlar o'zgartirildi) o'ziga tanish bo'lgan O.Y., S.A. va H.M.ni yashash xonadoniga yig'ib, moddiy manfaat evaziga qimor hamda tavakkalchilikka asoslangan o'yin tashkil qilganligi aniqlandi va tegishli tartibda chora ko'rildi.

Tuman IIB TQX xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor qidiruv tadbirlari jarayonida «Sarmijon» mahallasida yashovchi J.Javlon yashash uyi yerto'lasida 6 dona ov quroli patronlarini noqonuniy ravishda saqlab kelayotganligi aniqlandi. Mazkur patronlar xolislar ishtirokida tegishli tartibda rasmiylashtirilib, tuman IIB ixtiyoriga olib qo'yildi. Fuqaro J.Javlon tergovga qadar tekshiruvlar davomida ushbu patronlar marhum otasi J.R.ga tegishli ekanligini bildirgan. Ayni paytda ikkala holat bo'yicha ham tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Qo'riqlash xizmati faoliyatidan

XAVFSIZLIKNING
MUSTAHKAM POYDEVORI

Viloyat IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati xodimlari davr talabidan kelib chiqib, mijozlarga namunali xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratishyapti. Ayniqsa, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat ko'rsatkichlarda, balki amalda ham yangi bosqichni boshlab bermoqda.

Yil boshidanoq qo'riqlash xizmatlari tizimini modernizatsiya qilish, uning qamrovini kengaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq vazifalar belgilandi. Pirovardida qisqa muddat ichida salmoqli yutuqlarga erishildi. Xususan, birinchi chorak yakunlari bo'yicha qo'riqlashga olingan obyektlar soni 30 foizga oshirildi. Ya'ni, qariyb 2000 ta yangi obyekt tizimga jalb etildi. Jismoniy qo'riqlash obyektlari soni 33,3 foizga

oshib, 2400 tadan ortgan bo'lsa, texnik qo'riqlash obyektlari 30,5 foizga ko'payib, 6000 taga yaqinlashdi. Bu raqamlar nafaqat statistika, balki xavfsizlikka bo'lgan ishonchning ortib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar asosida ishlovchi signalizatsiya va kuzatuv tizimlari orqali xavflarni barvaqt aniqlash va oldini olish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa qo'riqlash xizmatlarining sifat



Xotira uyg'onsa go'zaldir

KECHA SAFDA EDI, BUGUN QALBLARDA

Ba'zi insonlar yashab o'tgan umr yo'liga nazar tashlasangiz, ular xuddi bu dunyoga faqat yaxshilik qilish, mehr ulashish va atrofidagilarni baxtivor ko'rish uchun kelgandek tuyuladi.

Ichki ishlar organlari tizimida halol xizmati, samimiyati va beg'ubor qalbi bilan o'chmas iz qoldirgan safdor Baxtiyor Akramov ana shunday insonlardan edi.

Namangan tumanining fayzli xonadonida murabbiy Abdubanno aka va fidoyi tarbiyachi Maxfirat opa farzandlarini ko'z qorachig'idek asrab, el xizmatiga kamarbasta qilib tarbiyalashdi. Ularning duolari bilan voyaga yetgan qahramonimiz ota-onasi uchun ishonch va g'urur timsoli edi.

Baxtiyor o'zining harbiy xizmatdan boshlangan faoliyatini ichki ishlar tizimining eng mas'uliyatli jabhalarida davom ettirdi. Davlatobod tumani IIB Kanselyariya boshlig'i, viloyat IIB Patrul-post xizmati batalyoni safdori hamda Namangan shahar IIOFMB kadrlar

bilan ta'minlash guruhi kichik inspektori lavozimlarida xizmat qilib, hamisha «Burchga sodiqlik – mardlik timsoli!» degan shiorni hayotiy aqidasiqa aylantirdi.

Uning hamkasblari orasida alohida hurmati bor edi. Huzuriga yumush bilan kelgan hech bir xodimni noumid qaytarmasdi. Birovning og'irini yengil qilish u uchun eng katta mukofot edi. U nafaqat tartib-intizom posboni, balki jamoaning ma'naviy ustuni edi.

2025-yil 25-may... Taqdirning kutilmagan hukmi bilan yuz bergan mudhish avtohalokat Baxti-



yorni oramizdan bevaqt olib ketdi. 35 yosh – umrning ayni gullagan, rejalar pishgan va farzandlar kamolidan ko'ngil quvonadigan eng go'zal palla edi. U oilasiga suyanch bo'ladigan yoshda abadiyat manziliga yo'l oldi.

Baxtiyordan bu yorug' dunyoda uchta o'chmas chiroq – uch jigarband meros qoldi. Donyorbek va Zilolaxon maktabda, jajji Solihaxon esa bog'chada tarbiyalanmoqda. Ularning nigo-hida otasining shijoati, orzulari va tugallanmay qolgan ezgu maqsadlari aks etib turibdi.

Kecha safda yelkadosh, ishonchli xodim va fidoyi farzand edi, bugun esa yaqinlari va do'stlarining qalb to'rida sog'inchga aylangan mangu xotiradir. Zero, o'zligini el xizmatiga, mehrini oilasiga baxshida etgan insonlar aslida o'lmaydi – ular shunchaki manzilini qalblarga ko'chirishadi. Baxtiyorning boqiy umri endi uning zurriyotlari kamolida, hamkasblari xotirasida va o'zi qoldirgan ezgu izlarda hamisha barhayot.

Jahongir TO'XTASINOV.
Namangan viloyati.



jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Mazkur o'sishlar, o'z navbatida, yangi ish o'rinlarini yaratishga ham xizmat qilmoqda. Jumladan, 7 ta yangi tezkor harakatlanuvchi guruhlar tashkil etildi. Bu guruhlar tezkorlik, harakatchanlik va aniqlik tamoyillari asosida faoliyat yuritib, xavfsizlikni ta'minlashda asqatmoqda. So'nggi tahlillarga ko'ra, THG tomonidan 36 ta jinoyatning oldi olindi. Eng katta ko'rsatkich esa «tig'li buyumlar» bilan bog'liq bo'lib, 27 ta holat bartaraf etildi. Yana 6 nafar qidiruvda bo'lgan shaxs ushlandi.

Keyingi chorakda ham oldimizga yanada yuksak maqsadlar qo'yilgan. Qo'riqlash obyektlari sonini oshirish, tizim qamrovini kengaytirish va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarini ushbu xizmatlarga faol jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa amalda mavjud obyektlar sonini kamida 3000 taga ko'paytirishni nazarda tutadi. Albatta, bunday katta marralarga erishish puxta reja va qat'iy nazoratni talab etadi. Bugungi

kunda ushbu yo'nalishdagi ishlar alohida nazoratga olingan bo'lib, har bir hudud kesimida aniq vazifalar belgilab berilgan. Mas'ul rahbarlar va mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar esa o'z samarasini bermoqda.

Eng muhimi, amalga oshirilayotgan islohotlar orqali fuqarolarning tinchligi, mulklarining daxlsizligi va jamiyatdagi barqarorlik yanada mustahkamlanmoqda. Qo'riqlash xizmatlaridagi bu kabi yangilanishlar nafaqat bugungi kun talablariga javob beradi, balki ertangi kun xavfsizligining mustahkam poydevorini yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shaxsiy tarkib o'zlarining kundalik faoliyati bilan xalq mulkini ishonchli qo'riqlashga, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga munosib hissa qo'shishga qodir ekanliklarini isbotlab kelishyapti.

Farrux QILICHEV,
kapitan.

Buxoro viloyati.

26-aprel — O'zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf tavallud topgan kun



IQROR

O, ota makonim.
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga.
Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog'laring ortimdan ergashib yurar.
Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin.
Yo xudbinman men yo bir sodda kasman men —
Parijning eng go'zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.
Na gapga ko'nayin,
Na til bilayin,
Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovat —
Uch kunda sog'insam nima qilayin,
Chala qolar bo'ldi hamma sayohat.
Bildimki, baridan ulug'im o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zing,
Arab ohusidan azizroq menga.
Sen bilan o'tgan har kun bayram — bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Muhammad YUSUF.

ABADIYLIKKA DAXLDOR

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayot bo'lganida bugun 72 bahorni qarshi olayotgan, yana bir bor ona Vatanni, uning tuprog'ini, xalqining dard-u quvonchini she'rga solayotgan bo'lar edi. Afsuski, taqdir uni bundan chorak asr muqaddam oramizdan olib ketdi. Biroq vaqt shoirni yengolmadi — u so'zlarda qoldi, qalblarda qoldi. Qisqa umr ichida u yaratgan she'rlar xalq ruhining samimiy ifodasiga aylandi. Uning sodda, xalqona, yurakdan chiqqan misralari bugun ham ona allasi kabi quloqlarda jaranglaydi, yuraklarga ko'chadi. Shu bois uning har bir she'rida xalqning nafasi, ona yurt tafti, muhabbat va dard uyg'unligi yashab kelmoqda.



Shoir xotirasiga ehtirom ramzi sifatida Ichki ishlar vazirligining Andijon akademik litseyi o'quvchilari Andijon shahridagi uning nomi bilan ataluvchi xiyobonda bo'lishdi. Muhammad Yusuf haykali poyiga gullar qo'yib, uning qalamiga mansub she'rlardan o'qishdi.

Shoirilar o'lmaydi. Ular zamonlar osha yashaydi, qalbdan-qalbgga ko'chib, har bir avlod bilan yangidan tug'iladi. Muhammad Yusuf ham ana shunday abadiylikka daxldor ijodkorlardan. Bugungi yoshlarning unga bo'lgan beqiyos ehtiromi, uning she'rlarini hayajon bilan o'qishi, xotirasini ulug'lashi nafaqat bir tadbir balki millat ruhining davomiyligidir. Chunki haqiqiy so'z egasi hech qachon yo'qolmaydi, u xalq bilan birga yashaydi, xalq bilan birga nafas oladi.

Sahifani o'z muxbirimiz
Saminjon HUSANZODA tayyorladi.



Mutaxassis fikri

AVVALO RUHIYATNI O'ZGARTIRISH KERAK

Hudud, millat, din, jins, yosh va chegara bilmas giyohvandlik illati umumbashariy muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Shuning uchun giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish jahon hamjamiyatidan barcha kuch va vositalarni birlashtirib, birgalikda harakat qilishni talab etadi.

Ushbu illatga qarshi murosasiz kurashishga hissa qo'shish maqsadida IIV huzuridagi JIED 23-sonli Mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonada davolanayotganlar bilan muntazam ravishda tarbiyaviy-profilaktik, psixologik tadbirlar, jumladan, trening va suhbatlar o'tkazilyapti. Shuningdek, mahkumlarga psixologik tavsiyalar berilyapti. Konsultatsiyalar orqali giyohvandlik vositalariga qaramlik nafaqat jismoniy, avvalo, ruhiy qaramlik ekanligi tushuntirilmoqda.

Giyohvandlikka ruju qo'yan kishining asta-sekin butun tanasi zaharlanadi. Natijada u kundankunga serjahl, mas'uliyatsiz bo'lib boraveradi, uyqusi buziladi. Boshqalarga, hatto o'ziga ham ishonmay qo'yadi. Tez toliqadi. Umumiy holsizlik alomatlari sezila boshlaydi. Giyohvanddan mayib-



majruh, tug'ma nuqsonli farzandlar dunyoga keladi. Xastalik bora-bora inson immun tizimini butunlay izdan chiqaradi. Giyohvandlikning


vaqtida oldi olinmasa, asab tizimini butunlay izdan chiqaradi va kishining ruhiyatida tushkunlik holatini yuzaga keltiradi.

Shuning uchun ushbu illat domiga ilingan insonlarning, avvalo, ruhiyatini o'zgartirish, kayfiyatini ko'tarish, shu tariqa, ularni tushkunlik holatidan chiqarib olish kerak. Giyohvandlarda o'zlariga ishonchni oshirish, ularni ertangi kunga orzu-umidlar bilan qarashga o'rgatish lozim. Shundagina davo muolajalari samarali kechadi. Yana bir dahshatli tomoni, ular boshqalarga qaraganda yuz baravar ko'proq jinoyat sodir etishga moyil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikka chalanganlar nafaqat o'ziga, balki yaqinlariga, jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga, alaloqibat esa istiqbolga ham har tomonlama salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun har bir inson bunday illatlardan uzoq bo'lishi, yaqinlari, qolaversa, boshqalarni ham bunday yo'lga kirib qolishdan qaytarishi darkor.

Javlon NORMATOV,
katta psixolog,
kapitan.

Oq'ishni tavsiya qilaman



HAYOT QO'LLANMASI

Shunday asarlar borki, ular asrlar o'tsa ham, o'z qimmatini yo'qotmaydi. Ana shunday noyob asarlardan biri Kaykovusning «Qobusnoma»sidir.

bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Sa'diyning «Guliston», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy», Devoniyning «Axloqi Jiloliy» asarlari bilan bir qatorda tilga olinadi.

Hayot qo'llanmasi hisoblangan bu kitobda qanday yashash, qanday inson bo'lish, jamiyatda o'z o'rnini qanday topish kerakligi haqida chuqur mulohazalar berilgan. Muallif asarni o'z o'g'liga bag'ishlab yozgan bo'lsa-da, aslida bu nasihatlar har bir inson uchun birdek ahamiyatga ega.

Chunki unda odob-axloq, ilm, do'stlik, mehnat, adolat, sabr-toqat kabi insoniy fazilatlar haqida so'z yuritiladi. Muallif insonni kamolga yetkazadigan asosiy omillar – tarbiya va ma'naviyat ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima esa asarni yanada xalqqa yaqinlashtirgan. U asar mazmunini sodda va ravon tilda yetkazib, uni o'quvchilar uchun tushunarli qilgan. Oga-

hiy tarjimasini orqali «Qobusnoma» nafaqat adabiy, balki ma'naviy-ma'rifiy manba sifatida ham keng tarqalgan.

«Qobusnoma» kitobida ota-ona haqini bilmoq, farzand parvarish qilish, suxandonlik bilan baland martabaga erishmoq, uy sotib olish, tijorat singari hayot jumboqlarini yechish kabi masalalar bayon etilgan.

Asardagi oltinga teng o'g'itlarning ayrimlarini eslatib o'tmoqchimiz: «Agar xalq sening haqingda yaxshi so'z aytarin tilasang, xalq haqida yaxshi so'z aytg'il», «Agar tiling uzun bo'lmog'in tilasang, qo'lingni qisqa qilg'il», «Ey farzand, har nechuk yigit bo'lsang ham, aqling qari bo'lsin», «Donishmandlar uyquni kichik o'lim debdurlar», «Bas, ey farzand, badanni o'zingga mute qil va uni qahr bilan itoatg'a buyurg'il».



«Qobusnoma»ni o'qigan inson bir necha muhim xulosalarga ega bo'ladi. U ilm insonni yuksaltiruvchi eng katta boylik, odob esa insonni inson qiladigan asosiy sifat, do'stlik va rostgo'ylik hayotning muvaffaqiyat kaliti, sabr va mehnat esa har qanday yutuqning asosi ekanligini o'rgatadi.

Xullas, bu asarni o'qish o'z ustida ishlash, ma'naviy yuksalish sari qadam qo'yish demakdir.

Go'zal JAFAROVA,
o'z muxbimiz.

Саломатлик сабоқлари

Шишлар тўқималарда ортиқча суюқлик тўпланиши натижасида юзага келади. Унинг келиб чиқиш сабаблари турлича бўлиб, ҳар бири алоҳида ёндашувни талаб қилади.

Энг кўп учрайдиган сабаблардан бири – буйрак касалликларидир. Буйраклар организмдаги ортиқча суюқлик ва тузларни чиқаришда муҳим ўрин тутати. Агар уларнинг фаолияти издан чиқса, танада суюқлик ушланиб қолади. Бундай ҳолатларда шишлар кўпроқ эрталаб, айниқса, юз ва кўз атрофида намоён бўлади.

Юрак-қон томир тизимидаги муаммолар ҳам шишларга сабаб бўлади. Юрак етарлича қон ҳайдай олмаганда, қон айланиши секинлашади ва суюқлик оёқларда тўплана бошлайди. Шу боис бундай шишлар кун давомида, айниқса, кечқурунга келиб катталашади.

ОЁҚДАГИ ШИШ хавфли эмасми?

Баъзан танишларимиздан «Ҳеч қаерим оғримайди, аммо гоҳида оёқларим шишади. Бу чарчоқдан бўлиши мумкинми, хавфли эмасми?» деган саволларни эшитиб қоламиз. Кўпчилик ушбу ҳолатга жиддий аҳамият бермайди. Аслида эса танадаги шишлар организмда кечаётган айрим ўзгаришлар, ҳатто касалликлардан дарак бериши мумкин.

Варикоз касаллиги ҳам бугунги кунда кенг тарқалган хасталиклардан бири бўлиб, узоқ вақт тик туриб ёки кўп ўтириб ишлайдиган инсонларда учрайди. Бунда оёқларда оғирлик, чарчоқ, оғриқ ва шиш кузатилади.

Гормонал мувозанатнинг бузилиши, хусусан, қалқонсимон без фаолияти пасайганда ҳам, танада шишлар пайдо бўлиши мумкин. Бундай ҳолатларда беморларда уйқучанлик, вазн ортиши, юрак уришининг секинлашиши каби белгилар ҳам кузатилади.

Аллергик ҳолатлардаги шишлар эса алоҳида эътибор талаб қилади. Чунки баъзан нафас йўллариининг шиши инсон ҳаёти учун жиддий хавф туғдириши мумкин. Шу сабабли бундай ҳолатларда зудлик билан тиббий ёрдам кўрсатиш зарур.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, шишларнинг сабабини аниқлашдан туриб, уни бартараф этишга уриниш нотўғри. Ҳар бир ҳолатда тўғри ташхис қўйилиб, сабабга қараб даво чоралари белгиланиши лозим.

Айрим ҳолларда шишлар соғлом одамларда ҳам кузатилиши мумкин. Масалан, иссиқ ҳаво, узоқ вақт тик туриш ёки ўтириш, ортиқча суюқлик истеъмоли, шўр ёки ҳазми оғир таомларни кўп истеъмол қилиш натижасида шишлар пайдо бўлади. Бундай ҳолатлар одатда қисқа вақт ичида ўтиб кетади. Аммо улар тез-тез такрорланса, бундан эътиборсиз қолдирмаслик керак.

Мутахассислар калий ва магнийга бой маҳсулотларни истеъмол қилишни тавсия этади. Жумладан,

гречка, турли мева ва резаворлар, бодринг, булғор қалампери, петрушка каби маҳсулотлар организмдан ортиқча суюқликни чиқаришга ёрдам беради.

Шунингдек, қуритилган ўрик (туршак) ва клюква табиий пешоб ҳайдовчи хусусиятга эга бўлиб, шишларни камайтиришда самарали ҳисобланади. Бироқ бу маҳсулотларни ҳам меъёردа истеъмол қилиш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, шишлар баъзан оддий ҳолатдек кўринса-да, организмдаги жиддий муаммоларнинг илк белгиси бўлиши мумкин. Шунинг учун ўз вақтида шифокорга мурожаат қилиш ва соғлом турмуш тарзига риоя этиш орқали кўплаб касалликларнинг олдини олиш мумкин.

**Икромжон УСМОНОВ,
Наманган вилояти
ИИБ Тиббиёт бўлими
умумий амалиёт
шифокори.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.**

ЁШАРТИРУВЧИ КЎКАТ ИЛДИЗИ

Сельдерей илдизи паст калорияли, лекин жуда тўйимли маҳсулот бўлиб, табиий шифобахш неъмат сифатида қадрланади. Унинг ўзига хос ҳиди ва мазаси бор, шунинг учун кўпгина миллий ва замонавий ошхоналарда кенг қўлланилади. Бу маҳсулот тўғри ва мунтазам истеъмол қилинса, организмни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Уни хом ҳолда (қирғичдан ўтказиб, салатларга қўшиб) ейиш ёки қайнатиб, димлаб ёки қовуриб истеъмол қилиш мумкин.

Унинг таркибида оксил, фойдали ёғлар ва углеводлар, С, К, Е, В6 витаминлари, калий, магний, фосфор каби минераллар, антиоксидантлар мавжуд. Сельдерей илдизи иммунитетни ва суякларни мустаҳкамлайди, асаб тизимига ижобий таъсир кўрсатади ва юрак фаолиятини қўллаб-қувватлайди. Ундаги толалар (клетчатка) ичакларни тозалайди, шунингдек, овқат ҳазмини яхшилаб, ичак фаолиятини рағбатлантиради. Узоқ вақт тўқлик ҳиссини бериб, вазн ташлашда яхши ёрдамчи ҳисобланади.



ҳужайраларга кислород етказиб беради ва уларни оксидланувчи маҳсулотлар билан ифлосланишдан асрайди, шунингдек, юз рангини тиниқлаштириб, тери ҳолатини яхшилайдиган эрта қаришнинг олдини олади.

Сельдерей илдизи шамоллаш, иммунитет заифлашиши, ревматизм, буйрак ва сийдик йўллари муаммолари кузатиладиганда қўлланилади. Калий миқдори юқори бўлгани учун қон босимини меъёрлаштиришга кўмаклашади. Ушбу экин маҳсулоти пешоб ҳайдовчи хусусиятга эга бўлиб, табиий диуретик ҳисобланади ва организмдан ортиқча сув, токсинларни чиқаришга хизмат қилади. Унинг таркибидаги Е витамини тўқима ва

Ушбу кўкат илдизини ҳаддан зиёд истеъмол қилиш баъзи ҳолларда аллергия ёки ҳазм муаммоларига олиб келиши мумкин. Шунинг учун бу маҳсулотни меъёрида истеъмол қилиш тавсия этилади.

ТЯЖЕСТЬ ПОСЛЕ ЕДЫ

После плотной еды важно помочь желудку, а не перегружать его еще больше.

Не ложитесь – лучше походите 15–20 минут. Выпейте теплый чай с имбирем, мятой или гвоздикой. Добавьте немного продуктов, помогающих пищеварению: натуральный йогурт, кефир, айран. Сделайте легкий массаж живота по часовой стрелке, выполните несколько наклонов вперед. Это механически помогает продвижению пищи и снимает чувство переполненности.



ВКУС И ПОЛЬЗА В ОДНОМ ПРОДУКТЕ

Сыр – это питательный продукт, который содержит белок и кальций, важные для здоровья костей, зубов и мышц. Благодаря своей структуре он хорошо насыщает и помогает дольше сохранять чувство сытости.

Кальций из сыра усваивается достаточно хорошо, особенно в сочетании с полноценным рационом. Поэтому сыр часто рекомендуют как удобный источник этого важного минерала.

В некоторых видах сыра присутствует витамин D, который участвует в обмене кальция и поддерживает здоровье костной ткани. Однако его количество обычно небольшое, поэтому рассчитывать только на сыр как на основной источник витамина D не стоит.

Благодаря высокой пищевой ценности сыр может быть хорошим вариантом перекуса, особенно в сочетании с овощами, цельнозерновым хлебом или фруктами.

Умеренное включение сыра в рацион помогает разнообразить питание и поддерживать поступление важных нутриентов – белка, кальция и жиров, необходимых организму.



Matonatli odamlar

MO'JIZAKOR QO'LLAR

Xalqimizda «Hunar, hunardan rizqing unar» degan maqol bejiz yaralmagan. Nukuslik sobiq ichki ishlar organlari xodimi Bekbergen Allasugurov II guruh nogironi bo'lishiga qaramasdan, o'z hunari tufayli hozirda el orasida qadr va hurmat topib kelyapti. U ancha yillar davomida yog'och ustachiligi bilan shug'ullanib, uy qurib, xonadon uchun zarur bo'lgan mebellar yasab kelgan bo'lsa, bugungi kunda kemalar maketini yaratyapti.

Maqolamiz qahramoni yosh paytidayoq amakisi Abdijamil otaga shogird tushib, duradgorlik sirlarini o'rgandi. Ustozi «Har qanday hunarni qunt bilan, mehr bilan o'rgansang, shundan baraka topasan», deya uqtirardi. Shuningdek, maktabdagi qo'l hunari to'garagida ishtirok etib, yog'ochdan turli amaliy san'at nunalari yaratishni ham o'rganadi.

Muddatli harbiy xizmatdan qaytgach, ichki ishlar organi xodimi bo'lishni niyat qiladi. 1987-yili dastlabki faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Kadrlar bo'limi kichik inspektori lavozimida boshlaydi. Keyinchalik Nukus shahar IIBda xizmat qiladi. Shu davrda qo'l jangi, tosh ko'tarish bo'yicha musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritadi. Ammo hayot har doim bir tekis kechmas ekan. 1993-yilga kelib sog'lig'ida paydo bo'lgan muammolar tufayli nafaqaga chiqadi.

Ana shu paytdan yoshligida o'rgangan ustachilik hunari bilan qayta shug'ullanishni boshlaydi. O'tgan yillar davomida 70 dan ortiq uy qurdi, qancha mebel yasaganining sanog'ini bilmaydi, shuningdek, 20 nafardan ortiq shogird tayyorlashga ulgurdi.

2007-yilda uning hayoti tubdan o'zgardi. O'shanda qarindoshlarining to'y marosimi sabab Qozog'istonda mehmonda bo'ldi. Qozog' qardoshlar uzoqdan kelgan mehmonlarni navbatma-navbat uyiga chaqirib, dasturxon yozdi. Galdagi mehmondorchilik payti mezbonning hovlisida sinib yotgan kema make-



tini ko'rib qoldi. Xonadon sohibi maketni tanishlari ancha yillar ilgari sovg'a qilganini, endi shikast yetgani bois chiqindiga tashlash niyatida ekanligini aytdi.

Bekbergen og'a uni tuzatishga urinib ko'rishga qaror qiladi. Shundan so'ng ishga kirishadi. Azbaroyi kirishib ketganidan uch kun davomida mehmondorchiliklarga ham bormay, mehnat qiladi. Natijada kema maketini o'zi kutganidan ham a'lo holda qayta tiklaydi. Buni ko'rgan mezbon: «Eh bovrinim, qoyil sizga, shunday buyumni chiqindiga tashlab yuborishimga sal qolgandi-ya», – deb hayratini yashira olmaydi. Bekbergen og'a uyiga qaytgach, kema maketlarini yasashga astoydil kirishadi.

– Dastlab arra, bolta va tesham bor edi. Asta-sekin boshqa asbob-uskunalarni sotib ola boshladim. Sababi, kema maketini yasash juda nozik ish. Maketning ko'rinishini avval xayolimda pishitib, so'ng qog'ozga tushiraman. Keyin yog'ochga ishlov berishga

Ichki ishlar faxriysi hunarmand sifatida 20 nafardan ortiq shogird tayyorladi.



Bu kema qancha vaqtda yasalishini bilasizmi?

shogirdlikka olardim, birgalikda ko'rgazmalar tashkil etgan bo'lardik. Sababi, bugungi kunda Qoraqalpog'istonda bunday hunar bilan faqat uch kishi shug'ullanib keladi. Qolaversa, hunarni keng yoysak, yurtimizda sayyohlar e'tibori yanada ortardi, – deydi Bekbergen Allasugurov.

U bo'sh vaqtlari gitara, rubob, tor va garmoshka singari asboblarda kuy chalib, qo'shiq ijro etishni yaxshi ko'radi. Turmush o'rtog'i Zulfiya opa bilan uch o'g'il, to'rt qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan. O'g'illarining barchasi ota izidan borib, ustachilik bilan shug'ullanadi.

– Hozir maktabni bitirish arafasidaman. Otamga yordam berish asnosida ustachilikni ham o'rganyapman. Bundan tashqari, sportning boks turi bilan muntazam shug'ullanaman. Turli musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldim. Kelgusidagi orzuim – otam singari ichki ishlar organi xodim bo'lish, – deydi kichik o'g'li Risxirufat.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yaratuvchanlikning zavqi o'zgacha. Qo'lida gulday hunari bor inson ertangi kunga ishonch bilan qaraydi. Halol kasbi, peshona teri orqali topilgan daromad barakali bo'ladi. Shunday ekan, yurtimizda Bekbergen Allasugurov kabi o'z hunari orqali nafaqat rizqini, balki boshqalarning e'tiborini ham topayotgan matonatli zamondoshlarimiz safi kengayaversin.

Azamat PIRNIYAZOV, o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Iste'dod haqida

Men... iste'dod nima ekanligini bilmayman, u haqida aniq bir narsa deya olmayman. Lekin ba'zan yo'lda ketayotganimda, yo uyga qaytayotganimda, yo tushimda (chakmonimga o'ranib yotgan bo'lsam ham), yo yam-yashil maysazorga qadam qo'yganimda, yo ovqatlanayotganimda, yo musiqa tinglayotganimda, yo sokin oila, yo sershovqin do'stlar davrasida o'tirganimda, yo bolalarni ko'targanimda, yo do'stlar tobutini yelkamda ko'tarib so'nggi manziliga kuzatayotganimda... to'satdan xayolimga ajib, hayratlanarli, sirli va qudratli bir narsa keladi... U taklifsiz va hech kutilmaganda keladi.

Rasul HAMZATOV, Dog'iston xalq shoiri.



Hayotning boshqalar ko'rmagan tomonini ko'rish – talant. Haqiqiy iste'dod boshqalar ko'rmagan narsani topadi va o'sha «narsa» insonni, xalqni, boring-ki, jamiyatni qayoqqa boshlashi mumkinligini tasvirlab beradi.

No'noq haykaltarosh tirik odamni shohsupagacha chiqarib qo'ysa ham o'likka o'xshaydi.

Haqiqiy haykaltarosh o'lik jondan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.

Talant degani shu!

O'tkir HOSHIMOV, O'zbekiston xalq yozuvchisi.

Musobaqa

IMKONIYATLAR CHEKSIZLIGINING ISBOTI

Inson irodasi shunday qudratli kuchki, u har qanday jismoniy to'siqlarni parchalab, maqsad sari yo'l ocha oladi. Bugun mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning faol a'zosiga aylantirish, sport orqali jismoniy va ma'naviy rehabilitatsiya qilishga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilyapti.



Poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksida IIV Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi tashabbusi bilan nogironligi bo'lgan yoshlar o'rtasida sportning stol tennisi, shaxmat va shashka turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Stol tennisi bahslarida tezkor harakatlar, shaxmat va shashka taxtasidagi teran fikrlar to'qnashuvi ishtirokchilarning imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, irodasi naqadar cheksiz ekanini ko'rsatdi. Har bir yurish, har bir zarbada

hayotga bo'lgan cheksiz intilish va ertangi kunga bo'lgan qat'iy ishonch aks etib turdi.

– Sport biz uchun na faqat jismoniy tarbiya, balki o'zimizni anglash va yangi do'stlar orttirish vositasidir, – deydi Yashnobod tumanidagi, 77-Nurli maskan ixtisoslashgan ko'zi ojizlar maxsus maktab-internati o'quvchisi Diyorbek Joniqulov – Bugungi tadbir bizga jamiyatning e'tiborida ekanimizni, davlatimiz bizni doimo qo'llab-quvvatlashini

yana bir bor his qilish imkonini berdi.

Ushbu sport bayrami yakunida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, medallar va qimmatbaho esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Eng katta sovrin – yoshlarning yuzidagi tabassum va qalblarida uchqunlagan g'alaba nashidasi bo'ldi. Bu kabi tadbirlar nogironligi bo'lgan yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvda muhim ko'priklarni bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

O'z muxbirimiz.



Siz buni bilarmidingiz?

«Fantaziyangni ishlat!»

Fanta nega bunday nomlanganligini bilasizmi? Ikkinchi jahon urushi mobaynida Coca-Colaning Germaniyadagi bo'limini boshqargan Maks Kayt yangi ichimlik yaratishga qaror qiladi. Unga nom berishda butun jamoa qatnashadi. Maks Kayt xodimlarga nemischada «fantasie», ya'ni «tasavvurni ishlatish», deydi. Ayni shu damda ishchilardan biri Jo Nip bexosdan «Fanta!» deb yuboradi. Buni qarangi, taklif hammaga ma'qul bo'ladi va mahsulot shu nom bilan ataladi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.



E'LON!

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Ixtisoslashtirilgan maktab-internati 2026/2027-o'quv yili uchun umumta'lim muassasalarining 4-sinfini tamomlayotgan (o'g'il bolalar) o'quvchilarni tanlovlarda ishtirok etishga taklif etadi.

Maktab-internatga o'qishga har yilgi qabul kvotasi **100 nafar** o'quvchini tashkil etib, uning 50 foizi ichki ishlar organlari xodimlari va **50 foizi boshqa fuqarolar farzandlariga** taqsimlanadi.

Jamoat tartibini saqlashda, jangovar harakatlarda, terrorizmga qarshi operatsiyalar o'tkazishda, favqulodda holat tartibini huquqiy ta'minlash va ularning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan vaqtda halok bo'lgan xodimlarning farzandlari o'qishga tanlovsiz qabul qilinadi.

Farzandlarining maktab-internatga o'qishga kirish istagini bildirgan ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar doimiy yashash joyidagi hududiy ichki ishlar boshqarmalariga belgilangan shakldagi ariza bilan murojaat qilishlari talab etiladi.

Farzandlari maktab-internatga o'qishga kirish istagini bildirgan xodimlar bevosita ichki ishlar organlarining rahbarlariga bildirgi bilan murojaat qiladi.



Arizalar joriy yilning 15-apreldan 1-iyun kuniga qadar qabul qilinadi.

Tanlov quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- hujjatlarni to'plash va o'rganish;
- orfografik va punktuatsion savodxonlik darajasini aniqlash;
- umumjismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- yakuniy test sinovlari.

Nomzodlarning umumta'lim fanlari (ona tili va adabiyot hamda matematika) bo'yicha bilimni baholash **O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi** tomonidan test sinovlari asosida o'tkaziladi.

Tanlov shartlariga ko'ra, diktant hamda umumjismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bosqichlari natijalari bo'yicha 6 (olti) ball dan kam ball to'plagan nomzodlar **O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi** tomonidan o'tkaziladigan test sinovlariga kiritilmaydi.

Test sinovlari o'qishga qabul qilishning hal qiluvchi bosqichi hisoblanib, xodimlar va boshqa fuqarolar uchun ajratilgan qabul kvotalari doirasida test sinovlari natijasi bo'yicha to'plagan ballaridan kelib chiqqan holda, ketma-ketlik tartibiga muvofiq nomzodlar tanlab olinadi.

Murojaat uchun tel: +998-90-065-25-75

ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши Жиззах вилояти ИИБ бошлиғи, генерал-майор Файрат Қодировга акаси
Мансуржон ҚОДИРОВнинг
вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Oltmish to'rt katakli jang maydonida Dunyoni zabt etdi JAVOHIR!



IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati qoshida ham shaxmat to'garagi tashkil etilgan. To'garakda 20 nafar iqtidorli o'quvchi shaxmat sir-asrorlarini qunt bilan o'rganmoqda.

*Yer sharining uchdan bir qismi
Turganida Bobom qo'lida.
Ne bir shohlar qaltirab jismi
Bosh egdilar uning yo'lida!*

*Shaxmatda ham Shoh edi Temur,
Ketgan omad qaytmog'i ham bor...
Jahon tojin boshingga Yurtim
Kiygizadi Javohir Sindor!*

*Olam, tinch bo'! Olam, turgin tik!
To'xtamasin zakovat jangi...
Daholikka da'vogar o'zbek
O'zgartirar dunyoning rangin.*

*Kurashadi oq-qora ochun,
O'ng-u so'lda uchar adovat.
Ikki rangga bo'linib nechun
Gul bargida titraydi hayot?!*

*...Dilga tushdi chaqmoqlar shaxti,
Uyg'onmoqda ulug'lar yodi!
Dunyo, yo'l ber! G'alaba ahdi
Ot surmoqda Temur avlodi.*

*Olam qotdi vaqt ummonida:
«Bu O'g'lonni to'xtatar qay zot?!»
Ajdodlarim uning qonida
Zafar o'tin yoqmoqdalar shod!*

Hayot – shaxmat!

Yo'li oq – qora!

Goho titrar

hovuchda jonim...

Parvardigor,

shu yo'llar aro

G'olib o'tsin

O'zbekistonim!

Qo'chqor NORQOBIL

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Temur QURBONOV
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1142.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49794 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.